Qizilo'ngachni makroskopik tekshirish uchun qizilo'ngach to'qimasining oldingi, o'rta va oxirgi qismlaridan bo'laklar 3-4 tadan olinib, 10% li neytral formalin eritmasiga 24 soatgacha fiksatsiya uchun solindi. Fiksatsiyadan so'ng bo'lakchalar bir soat davomida oqar suvda yuvildi. Materialni suvsizlantirish standart protsedura bo'yicha amalga oshirildi, bu esa ortib borayotgan konsentratsiyadagi spirtlarda suvsizlanishni o'z ichiga oladi, keyin bo'lakchalar parafin bloklariga quyildi.

Tekshirish davomida qizilo'ngach to'qimalarini makroskopik va mikroskopik o'rganishlariga asoslanib, jami 347 ta qizilo'ngach organi makroskopik va mikroskopik o'rganib chiqildi. Umumiy morfologiya uchun har bir qizilo'ngachdan 3 ta bo'lak, ya'ni yuqori, o'rta va pastki bo'laklari qismidan 1,5x1,5 sm to'qima kesib olinib 10% li neytrallangan formalinda qotirildi. Oqar suvda 2-4 soat yuvilgandan so'ng konsentratsiyasi oshib borgan spirtlarda va ksilolda suvsizlantirildi, keyin parafin quyilib, bloklar tayyorlandi.


Keyingi vazifa MS-2 chanali mikrotomida 4-6 mkm qalinlikdagi parafinli g'ishchalar kesilib, kesmalar gematoksillin va eozin bo'yog'i bilan bo'yaldi.




Rasm 2. 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo'ngachi. Makropreparat



Rasm 3. 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo'ngachi. Makropreparat.



Rasm 4. Qizilo'ngachning mikroskopik ko'rinishi normada. Bo'yoq gematoksillin-eozin.



Rasm 5. Qizilo'ngachning mikroskopik ko'rinishi normada. Bo'yoq gematoksillin-eozin.

Gistologik preparatlarni tayyorlash 4 bosqichdan iborat bo'lib, an'anaviy usullarda olib borilgan. Preparatlarni tayyorlash uchun mikrotomdan foydalanilgan, tayyorlangan kesmalar gematoksilin –eozin va Van-Gizon usullarida bo'yalgan. Buning uchun kesmalar 3-5 daqiqa davomida gematoksilin eritmasiga solingan, so'ngra suv yordamida yuvilgan. YAdrolar binafsha rangga bo'yalgach (mikroskop ostida kuzatiladi), ular eozin eritmasida 0,5-1,5 daqiqa davomida bo'yalgan, distillangan suvda yuvilgan va suvsizlantirish uchun konsentratsiyasi oshib

boradigan spirtlardan (70° dan 100° gacha) foydalanilgan. Spirtni kesmadan ketkazish va tindirish uchun O-ksilolning uch qismiga ketma ket joylashtirilgan va Kanada balzamiga solingan.

Gistologik preparatlarni tayyorlash bosqichlari:

Birinchi bosqich - biologik ob'ektlarni olish. Anesteziya laboratoriya hayvonlarini o'ldirishda ishlatildi. Keyin hayvon tezda ochiladi, kerakli a'zolar va to'qimalar olinadi, undan mayda bo'laklar (6-7 mm³) o'tkir asbob bilan kesilib, fiksatorga joylashtirildi. Fiksatorning hajmi belgilangan ob'ekt hajmidan 20-40 marta ko'p bo'ldi. Fiksatsiya to'qimalarda o'limdan keyingi o'zgarishlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, ulardagi biokimyoviy jarayonlarni to'xtatadi. Har qanday fiksatorning ta'siri murakkab fizik-kimyoviy jarayonlarga, avvalambor oqsillar koagulyasiyasiga asoslangan. Biz tarkibida bitta (formalin, alkogol, atseton) va ikki yoki undan ortiq komponentni (xloroform, muzdek sirka kislotasi; Zenker suyuqligi - simob xlorid, kaliy dixromat, natriy sulfat, formalin, distillangan suv) o'z ichiga olgan murakkab reaktivlardan foydalandik.

Ikkinchi bosqich - biologik ob'ektlarni yuvish, suvsizlantirish va to'ldirish. YUppa bo'laklarni olish uchun sobit biologik ob'ektlar mos ravishda tayyorlandi: uni etarlicha zich qilish uchun, fiksatsiyadan so'ng, ortiqcha fiksatorдан xalos bo'lish uchun bo'laklar 12-24 soat davomida oqar suv ostida yuvildi. Carnoy suyuqligida joylashgan bo'laklar uchun ushbu bosqich o'tkazib yuborildi. YUvib bo'lgandan so'ng, ular bo'shashtirildi va kuchayib boruvchi spirtlar bilan zichlandi, ular uchun ketma-ket 50°, 60°, 70°, 80°, 90°, 96° va 100° li spirtlar ishlatildi. Keyin bo'laklarga aniqlik kiritildi, ular uchun avval mutloq spirt (100°) va O-ksilol 1:1 nisbatda aralashtirildi, shu aralashmaga, so'ngra toza O-ksilolning 2/3 qismiga joylashtirildi. Tozalashdan keyin termostatda (O-ksilol va parafinning teng qismlari aralashmasi) 37°C haroratda, so'ngra 2/3 qism toza parafin, 56°C da eritiladi. Parafin bilan namlangan qismlar yog'och bloklarga yopishtirilgan. SHu tarzda tayyorlangan biologik ob'ektlar ochiq havoda uzoq vaqt saqlanishi mumkin.

Uchinchi bosqich - gistologik bloklarni tayyorlash. Bloklarni tayyorlash uchun mikrotomdan foydalanilgan. Olingan parafin bo'laklari oqsil va glitserin aralashmasi (1:1 nisbatda) bilan surtilgan buyum oynachasiga yopishtirilib, 37°S da termostatda quritildi.

To'rtinchi bosqich - bo'yash va kesish. Bloklar bo'yalib, biologik mikroob'ektlarni kuzatish uchun mo'ljallangan, dasturiy ta'minotga ega HL-19 modelidagi trinokulyar mikroskop ostida a'zo tuzilishi aniq ko'rildi va to'qima tuzilmalarining teng bo'lmagan kimyoviy tarkibiga asoslandi. Ularning barchasini kelib chiqishiga qarab ajratish mumkin: o'simlik (gematoksilin), hayvonlar (karmin), sintetik (eozin); kimyoviy xossalari bo'yicha: kislotali, asosli, neytral.

Ma'lumki, tuzilmalarning asosiy bo'yoqlar bilan bo'yalish qobiliyatiga bazofiliya, deyiladi. Hujayrada bazofil tuzilish nuklein kislotalarni o'z ichiga olgan yadrodir. Bazofil bo'yoqlarga gematoksilin, karmin, tionin kiradi. Kislotali bo'yoqlar bilan bo'yalgan tuzilmalarga oksifillik deyiladi, masalan, hujayralar sitoplazmasi. Kislota bo'yoqlari - bu kislota hosilalari yoki ularning tuzlari (eozin, kislota fuksini). Neytral bo'yoqlar (tripan ko'k, neytral qizil). Bundan tashqari, o'ziga xos bo'yoqlar mavjud. Masalan, elastik tolalar qizil-jigarrang rangda orsein bilan, rezorsinol-fuksin quyuq ko'kda, aldegid-fuksin quyuq binafsha rangda bo'yaladi. Hujayralardagi yog'lar va yog'da eriydigan moddalar Sudan III bilan to'q sariq rangga bo'yalsa, osmiy yog'larni qora rangga bo'yaydi. Mikroskop ostida asab tizimining elementlarini aniqlash uchun kumush nitrat bilan singdirish usuli qo'llaniladi.

Blokni tayyorlashdan oldin parafindan olinadi (mumsizlantirish). Buning uchun preparatlar ketma-ket O-ksilolning uch qismidan, pastga tushadigan kuchga ega spirtlardan (100° dan 70° gacha) o'tkazildi, so'ngra ular distillangan suvga joylashtirildi. SHu tarzda tayyorlangan preparatlar gematoksilin va eozin bilan bo'yaldi. Buning uchun preparatlar 3-5 daqiqa davomida gematoksilin eritmasiga, so'ngra yuvish va farqlash uchun musluk suviga joylashtirildi. YAdrolar binafsha rangga ega bo'lgandan so'ng (mikroskop ostida boshqariladi), ular eozin eritmasida

0,5-1,5 daqiqa davomida bo'yaldi, distillangan suvda yuvildi va ko'tarilish kuchi (70° dan 100° gacha) bo'lgan spirtlarda quritildi. Bundan tashqari, spirtli eritmalarni ta'sirini to'xtatish uchun va bloklarni aniqlashtirish uchun ular O-ksilolning 2/3 qismiga ketma-ket joylashtirilgan va Kanada balzamga solingan.

Keyingi vazifa MS-2 chakanli mikrotomida 4-6 mkm qalinlikdagi parafinli bloklar kesilib, kesmalar gematoksillin va eozin bo'yog'i bilan bo'yaldi.

Kesmalar morfometrik tekshirilib, qizilo'ngach xujayralari o'lchami okulyar mikrometr yordamida o'lchandi, bunda biz Xitoyda ishlab chiqarilgan trinokulyar mikroskopdan foydalandik. DN-107t/ Model NLCD-307b (Roman, Xitoy).

Tadqiqot davomida olingan morfologik ma'lumotlarni matematik qayta ishlash to'g'ridan – to'g'ri Microsoft Office ma'lumotlar paketining umumiy matritsasi "Excel 7.0" Pentium-IV shaxsiy kompyuterida "STTGRAF 5.1" dasturining imkoniyatlaridan foydalanib, standart og'ish va vakillik xatolari aniqlandi.

Jadval 2.1

Kalamushlarning tajriba tarkibidan kelib chiqqan holda taqsimoti

Kalamushlar suzurabi	Tajribaning xarakteri	Tajribadagi kalamushlar										Kalamush larning umumi y soni
		1 kun	2 kun	3 kun	4 kun	5 kun	6 kun	7 kun	8 kun	9 kun	10 kun	
I	Nazorat 0,5 ml dis- gan suv	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	50
II	Paratsetamol 15 mg / kg	++	++	++	++	++	++	++	++	++	++	50
	Aspirin 5 mg / kg	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	
III	Paratsetamol 15 mg / kg,	++	++	++	++	++	++	++	++	++	++	50
	Aspirin 5 mg / kg	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	
	Ibuprofen 6 mg / kg	++	++	++	++	++	++	++	++	++	++	
IV	Paratsetamol 15 mg / kg	++	++	++	++	++	++	++	++	++	++	50

	Aspirin 5 mg / kg	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	
	Ibuprofen 6 mg / kg	++	++	++	++	++	++	++	++	++	++	
	Deksametazon 0,1 mg/ kg	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	
V	Paratsetamol 15 mg / kg	++	++	++	++	++	++	++	++	++	++	50
	Aspirin 5 mg / kg	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	
	Ibuprofen 6 mg/ kg	++	++	++	++	++	++	++	++	++	++	
	Deksametazon 0,1 mg/kg	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	
	gidroksiloroksinin sulfat 6,5 mg / kg	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	
Jami											250	

Jadval 2.2

Nazorat va tajriba oq zotsiz erkak kalamushlarga beriladigan dori vositalarining sutkalik miqdor taqsimoti

Kalamushlar	Tajribaning xarakteri	Tajribadagi kalamushlar										Kalamush larning umumi y soni
		1 kun	2 kun	3 kun	4 kun	5 kun	6 kun	7 kun	8 kun	9 kun	10 kun	
I	Nazorat 0,5 ml dis-gan suv	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	50
II	Paratsetamol 3.0 mg / kg	++	++	++	++	++	++	++	++	++	++	50
	Aspirin 1.0 mg / kg	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	
III	Paratsetamol 3.0 mg / kg,	++	++	++	++	++	++	++	++	++	++	50
	Aspirin 1.0 mg / kg	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	
	Ibuprofen 1.2 mg / kg	++	++	++	++	++	++	++	++	++	++	
IV	Paratsetamol 3.0 mg / kg	++	++	++	++	++	++	++	++	++	++	50
	Aspirin 1.0 mg / kg	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	
	Ibuprofen 1.2 mg / kg	++	++	++	++	++	++	++	++	++	++	

	Deksametazon 0,02 mg/ kg	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	
V	Paratsetamol 3.0 mg / kg	++	++	++	++	++	++	++	++	++	++	50
	Aspirin 1.0 mg / kg	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	
	Ibuprofen 1.2 mg/ kg	++	++	++	++	++	++	++	++	++	++	
	Deksametazon 0,02 mg/kg	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	
	gidroksiloroxinin sulfat 1.3 mg / kg	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	
	Jami											250

Variatsion parametrik statistika usullari o'rganilayotgan ko'rsatkichning o'rta arifmetigi (M), o'rtacha kvadratik chetlanish (m), o'rtacha standart xatolik (m), nisbiy qiymatlar (chastota,%) ni hisoblash bilan qo'llanildi.

O'lchamlarni taqqoslashda olingan o'lchashlarning statistik ahamiyati Styudentning mezoni (t) taqsimotning normalligini (kurtosis mezoni bo'yicha) va umumiy variatsiyalar tengligini tekshirishda xatolik ehtimoli (P) ni hisoblash bilan aniqlandi (f – Fisher mezoni). Hisoblangan mezonlarning statistik ahamiyatini baholash uchun maqbul muhimlik darajalari (P) uchun ko'rsatkichlar va tanqidiy qiymatlar jadvallaridan foydalanildi.

Muhimlikning to'rtta asosiy darajasi statistik jihatdan ahamiyatli o'zgarishlar sifatida qabul qilindi: yuqori - $R < 0.001$, o'rta $R < 0.010$, past (marginal) – $R < 0.050$, ahamiyatsiz (ishonchsiz) - $R > 0.050$.

XUSUSIY TEKSHIRUV NATIJALARI

Birinchi guruh nazoratdagi oq zotsiz kalamushlarda qizilo'ngach to'qimasining morfologiyasi va morfometrik xususiyatlari

Qizilo'ngach – ovqat hazm qilish yo'lining bir qismi bo'lib hisoblanadi. Hozirgi vaqtda qizilo'ngachdagi patologik jarayonlarni o'rganishga doir ma'lumotlar kam yoki etarli emas. Organlar va to'qimalarda o'zgarishlarni aniq va ob'ektiv baholash uchun mikroskopik, xususan, morfometrik, tadqiqot usullari va olingan ma'lumotlarning statistik tahlilini keng qo'llashni taqozo etmoqda, bu nafaqat o'rganilayotgan o'zgarishlarning xarakterini va tavsifini baholashning aniqligini oshiribgina qolmay, balki morfologik tashxisni ham ob'ektivlashtiradi va mukammallashtiradi.


Qizilo'ngachning morfofunksional holatini tahlil qilishning gistologik usullari turli etiologiyali oshqozon ichak trakti kasalliklarini tashxislash va differensial tashxislashda keng qo'llaniladi. Biroq, ularning natijalari har doim ham butun organ strukturasi buzilishini aks ettirmaydi.

Bularning barchasi birgalikda tadqiqotchilarning qizilo'ngach patologiyasini baholashning yangi usullarini tadbiq etishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, bu qizilo'ngach patomorfologik tuzilmalaridagi o'zgarishlar mezonlarini mikroskopik baholash bilan bog'liq bo'lishi mumkin, bir nechta yallig'lanishga qarshi vositalar, ya'ni polipragmaziya holatidagi o'zgarishlarni aniqlashga yordam beradi.

Shuning uchun qizilo'ngach to'qimasining normadagi ma'lumotlarini o'rganish va patologik jarayonlar bilan solishtirish imkoni paydo bo'lishi nuqtai nazaridan oq zotsiz kalamushlar qizilo'ngachini makroskopik va mikroskopik o'rganish maqsad qilib olindi va 50 ta oq zotsiz kalamush qizilo'ngachi makroskopik va mikroskopik o'rganildi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, nazorat guruhi kalamushlarining vazni 203,2 g dan 232,4 g gacha, o'rtacha - $220,31 \pm 1,19$ g gacha, qizilo'ngach massasi 2,06 g dan 3,64 g gacha, o'rtacha - $3,17 \pm 0,06$ g ga teng bo'lgan. Qizilo'ngach ovqat hazm qilish sistemasining halqum bilan me'da o'rtasidagi oraliq qismi bo'lib, tashqi

tomondan biriktiruvchi to'qima bilan qoplanganligi sababli ovqat luqmasi o'tayotganida ko'ndalang diametrini osonlikcha o'zgartira oladi. Qizilo'ngach devorining qalinligi o'rta hisobda 1-2 mm atrofida bo'lib, uzuksimon tog'ayning pastki cheti, VI bo'yin umurtqasi sohasidan boshlanadi va uning pastki qismi qorin bo'shlig'ida joylashgan bo'ladi (3.1.1.-rasm).




3.1.1.-rasm. Nazorat guruhinig 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo'ngachining gistologik ko'rinishi (Van-Gizon usulida bo'yalgan.

OK 10 x 10 4 OB. 1- shilliq qavat, 2-muskulli plastinka, 3- shilliq osti qavat, 4- mushak qavat).

Qizilo'ngachda uchta torayma bo'lib, yuqorigisi qizilo'ngachning kirish qismida, o'rta torayma aorta ravog'i va chap bosh bronx sohasida va pastkisi diafragma bilan kesishgan joyida joylashganligini ko'rish mumkin. Shu bilan birga qizilo'ngachning anatomik jihatdan uchta qismi farlanadi: bo'yin qismi (pars cervicalis), ko'krak qismi (pars thoracalis) va qorin qismi (pars abdominalis). Uning devori shilliq, shilliq osti va muskul qavatlardan iborat. Shilliq qavati burmalarga yig'ilgan bo'lib, ovqat luqmasi o'tayotganida tekislanadi (3.1.2.-rasm).

Makroskopik nuqtai nazardan, nazorat guruhining 9 oylik oq zotsiz kalamushlar qizilo'ngachi patologik o'zgarishlarsiz, ya'ni tavsiflangan yosh me'yorlariga mos keladi. Nazorat guruhining 9 oylik kalamushlarida qizilo'ngachning organometrik parametrlari dinamikasi quyidagilardan iborat


bo'ldi: kuzatuv davrida, qizilo'ngachning absolyut vazni - 2,06 g dan 3,64 g gacha, o'rtacha - $3,17 \pm 0,06$ g; qizilo'ngachning uzunligi - 3,35 sm dan 5,37 sm gacha, o'rtacha - $4,31 \pm 0,11$ sm; kengligi - 0,42 sm dan 0,76 sm gacha, o'rtacha - $0,58 \pm 0,02$ sm; qalinligi - 0,12 mm dan 0,23 sm gacha, o'rtacha - $0,17 \pm 0,01$ sm; qizilo'ngachning hajmi - $0,12 \text{ sm}^3$ dan $0,44 \text{ sm}^3$ gacha, o'rtacha - $0,23 \pm 0,0021 \text{ sm}^3$ ga oshdi (3.1.2.-rasm).



3.1.2.-rasm. Nazorat guruhinig 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo'ngachining gistologik ko'rinishi (Gematoksilin-eozin usulida bo'yalgan. OK 10 x 10 4 OB. 1- shilliq qavat, 2-muskulli plastinka, 3- shilliq osti qavat, 4- mushak qavat).

Gistologik nuqtai nazardan, qizilo'ngach devori 4 qavatdan iborat bo'lib, shilliq va shilliq osti pardalar bir necha bo'ylama ketgan burmalar hosil qiladi va ular ovqat yutilayotganda yoziladi. Shilliq parda epiteliydan, xususiy va muskul plastinkalaridan iborat. Epiteliy ko'p qavatli yassi muguzlanmaydigan epiteliy hujayralardan iborat. Eng yuqori qatlamlaridagi yassi hujayralarda muguzianish alomatlari boladi. Epiteliy qatlamining bazal hujayralarida mitoz bo'linish jarayoni natijalari ko'rinadi va bu hosil bo'lgan yosh hujayralar yetilib yuqoriga suriladi, yuza hujayralar, esa ketma-ket tushib turadi. Shu tarzda fiziologik regeneratsiya jarayoni yuz beradi. Epiteliy aniq ko'rinadigan bazal membranada yotadi va uning ostida xususiy plastinka joylashgan. Xususiy plastinka siyrak tolali shakllanmagan

biriktiruvchi to‘qimadan iborat bo‘lib, ushbu xususiy qavat epiteliyga botib kirib so‘rg‘ichlar hosil qiladi. Biriktiruvchi to‘qimada elastik va kollagen tolalar soni ko‘p miqdorda uchrashini kuzatish mumkin, shuningdek ushbu to‘qimada biriktiruvchi to‘qimaning hamma komponentlari mavjud bo‘lib, juda ko‘p diffuz ba‘zan follikula hosil qilib joylashgan limfotsitlarni uchratish mumkin (3.1.3, rasm).



3.1.3.-rasm. Nazorat guruhinig 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo‘ngachining gistologik ko‘rinishi (Gematoksilin-eozin usulida bo‘yalgan. OK 10 x 10 4 OB 40. 1- shilliq qavat, 2-muskulli plastinka, 3- shilliq osti qavat, 4- mushak qavat).


Shilliq pardaning xususiy plastinkasida qizilo‘ngachning kardial bezlari joylashgan bo‘lib, ular to‘da-to‘da bolib 2 guruhga: yuqori gruppada kardial bezlar hiqildoqning uzuksimon tog‘ayi sohasida, pastki to‘dasi esa qizilo‘ngachning quyi — qizilo‘ngachning me‘daga o‘tish qismida yotadi. Bu bezlar me‘daning kardial bezlariga o‘xshash tuzilgan bo‘lib, ushbu bezlarning oxirgi bo‘limlari shilliq ishlab chiqaruvchi silindrsimon yoki kubsimon hujayralardan tashkil topganligi aniqlandi. Ushbu bez namlari epiteliy yuzasiga ochiladi. Qizilo‘ngachning kardial bezlari o‘zida ko‘p miqdorda endokrin hujayralar tutadi va ular ayniqsa bezning oxirgi bo‘linmalarida, qisman esa chiqaruv naylarida joylashganligini ko‘rish mumkin. Shilliq pardaning mushak plastinkasi elastik tolalar to‘ri bilan o‘ralgan silliq mushak hujayralaridan tuzilgan. Ular bo‘ylama joylashadi va quyi tomonga ko‘payib boradi.

Shu mushakning qisqarishi natijasida ovqat luqmalarining o'tishi yengillashadi

Shilliq osti pardasi siyrak tolali shakllanmagan biriktiruvchi to'qimadan tuzilgan bo'lib, uning kollagen va elastik tolalari ko'pincha bo'ylamasiga yo'nalganligini ko'rish mumkin. Shilliq osti pardasi qizilo'ngachning shilliq ishlab chiqaruvchi xususiy bezlari (glandula oesophagea propria) joylashgan bo'lib, murakkab tarmoqlangan naysimon-alveolyar bezlardir. Bezlarning oxirgi bo'limlari faqat shilliq hujayralardan tashkil topgan bo'ladi va bu bezning sekretini avval mayda, so'ng yirik chiqaruv naylariga quyiladi. Ular o'z navbatida o'zaro qo'shilib, epiteliy yuzasiga ochiladi. Mayda naychalarda epiteliy bir qavatli kubsimon yoki past silindrsimon, yirik naylarda esa ko'p qavatli yassi hujayralardan iboratligi aniqlandi. Qizilo'ngachning xususiy bezlarining mahsuloti shilliq pardaning yuzasini namlab oziq moddaning yaxshi siljishini ta'minlaydi va bu xususiy bezlar qizilo'ngachning asosan yuqorigi 1/3 qismida uchrashi aniqlandi.

Qizilo'ngachning mushak parda qavati ichki aylana va tashqi bo'ylama yotgan mushak qavatlardan iborat. Mushak parda qavati qizilo'ngachning yuqori 1/3 qismida ko'ndalang targ'il, o'rta 1/3 qismida ham ko'ndalang targ'il, ham silliq mushak, quyi 1/3 qismida esa faqatgina silliq mushaklardan tuzilganligini ko'rish mumkin. Bu xususiyat kesmada qizilo'ngachning qaysi joyidan olinganligini aniqlash uchun belgi bo'la oladi. Ichki sirkulyar qavat ikki bo'rtma shaklidagi qizilo'ngach sfinkterlarini hosil qilib, yuqori sfinkter uzuksimon tog'ay sohasida joylashgan bo'lsa, ikkinchi - pastki sfinkter esa qizilo'ngachning me'daga o'tish qismida hosil bo'lganligi aniqlandi

Qizilo'ngachning adventitsial parda qavati siyrak tolali shakllanmagan biriktiruvchi to'qimadan iborat bo'lib, bir tomondan mushak qavatidagi, tashqi tomondan a'zo atrofidagi biriktiruvchi to'qima bilan aloqada bo'lib turganligini kuzatish mumkin. Adventitsiya qavatida bo'ylama yo'nalgan qon tomirlar va nerv tolalarining ko'plab joylashganligi, qizilo'ngachning pastki qorin qismida adventitsiya o'rnida seroz parda bolib, uning mezoteliy bilan o'ralgan biriktiruvchi to'qimadan tashkil topganligi aniqlandi (3.1.4 rasm).



3.1.4.-rasm. Nazorat guruhinig 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo'ngachining gistologik ko'rinishi (Van-Gizon usulida bo'yalgan. OK 10 x 10 4 OB 10, 1- shilliq qavat, 2- shilliq osti qavat, 3-mushak qavat).

Gistologik jihatdan nazorat guruhdagi 9 oylik oq kalamushlar qizilo'ngachining shilliq, shilliq osti, muskul va adventisiya qavatlarini patologik o'zgarishlarsiz tavsiflangan va yosh me'yorlariga to'g'ri keldi .

O'tkazilgan tadqiqotlarning gistomorfometrik ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, kuzatuv davridagi nazorat guruhining 9 oylik kalamushlarida qizilo'ngachining shilliq qavatining diametri - 61,89 mkm dan 84,65 mkm gacha, o'rtacha - $73,43 \pm 0,89$ mkm ga, shilliq osti qavatining diametri - 54,4 mkm dan 66,43 mkm gacha, o'rtacha - $59,08 \pm 0,6$ mkm ga, muskul qavatining diametri - 366,54 mkm dan 360,77 mkm gacha, o'rtacha - $362,4 \pm 1,16$ mkm ga, adventisiya qavatining diametri - 3,22 mkm dan 4,18 mkm gacha, o'rtacha - $3,52 \pm 0,04$ mkm gacha kattalikdagi o'lchamni tashkil etdi (3.1-jadval).

O'tkazilgan makroskopik, gistologik, gistomorfometrik tadqiqotlar natijasida nazorat guruhining 6 oylik kalamushlarning qizilo'ngachida morfologik o'zgarishlar aniqlanmadi.

3.1-jadval


Nazorat guruhi 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo'ngach devorining morfometrik ko'rsatkichlari (M±m)

Qavatlari		O'lchamlari		
		Nazorat guruhi		
		Min	Max	O'rtacha qiymat
Shilliq qavatining qalinligi (mkm)	Epiteliy plastinka qalinligi (EP) (mkm)	35,06	50,76	44,2±0,57
	Xususiy plastinka qalinligi (XP) (mkm)	8,42	13,11	11,4±0,12
	Mushak plastinka (MP) (mkm)	15,77	23,55	17,82±0,19
Shilliq osti qavatining qalinligi (mkm)		54,4	66,43	59,08±0,44
Muskul qavatining qalinligi	Sirkulyar qavat (SQ) (mkm)	198,55	207,32	202,76±0,36
	Bo'ylama muskul qavat (BQ)	133,35	156,4	152,92±0,45
Adventisiya qavatining qalinligi (mkm)		3,22	4,18	3,52±0,03

Shunday qilib, nazorat guruhining 9 oylik kalamushlari qizilo'ngachining gistomorfometrik parametrlari adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga mos keladi.


3.2. Ikkinchi guruh 1 oy davomida 2 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan oq zotsiz kalamushlarda qizilo'ngach to'qimasining morfologiyasi va morfometrik xususiyatlari

Bizning ma'lumotlarga ko'ra, tadqiqot guruhida oq kalamushlarda 1 oy davomida 2 turdagi nosteroid yallig'lanishga qarshi dorilar ta'sirida 9 oylik oq zotsiz kalamushlar qizilo'ngach devoridagi o'zgarishlarni o'rganish uchun qizilo'ngachning 50 a'zosi makroskopik va mikroskopik jihatdan tekshirildi. II - Tadqiqot guruhining 1 oy davomida 2 xil turdagi nosteroid yallig'lanishga qarshi dori vositalarini (paratsetamol 15 mg/kg, aspirin 5 mg/kg) qabul qilgan oq zotsiz kalamushlar tashkil etdi (n=50);



3.2.1.-rasm. Tadqiqot guruhinig 1 oy davomida 2 xil nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo‘ngachining gistologik ko‘rinishi (Van Gizon usulida bo‘yalgan. OK 10 x 10 4 OB. 1- shilliq qavatning shish hisobiga kengayishi, 2- mushak qavatning shish hisobiga kengayishi, 3- vena qon tomirlar to‘laqonligi).

Makroskopik jihatdan, tadqiqot guruhi oq zotsiz kalamushlarining vazni 201 g dan 229 g gacha, o‘rtacha – $217,11 \pm 1,45$ g gacha, qizilo‘ngach massasi 2,36 g dan 3,87 g gacha, o‘rtacha - $3,24 \pm 0,056$ g ga teng. II- tadqiqot guruhi oq zotsiz kalamushlar qizilo‘ngach organi tashqi tomondan biriktiruvchi to‘qima bilan qoplangan bo‘lib, uzuksimon tog‘ayning pastki cheti, VI bo‘yin umurtqasi sohasidan boshlanadi va uning pastki qismi qorin bo‘shlig‘ida joylashganligini ko‘rish mumkin (3.2.1.-rasm). Qizilo‘ngachning yuqorigi kirish qismida yuqorigi torayma, aorta ravog‘i va chap bosh bronx sohasida o‘rta torayma va pastkisi diafragma bilan kesishgan joyida uchta torayma joylashganligini hamda anatomik jihatdan uchta bo‘yin qismi (pars cervicalis), ko‘krak qismi (pars thoracalis) va qorin qismi (pars abdominalis) ni kuzatish mumkin.



3.2.2.-rasm. Tadqiqot guruhinig 1 oy davomida 2 xil nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo‘ngachining gistologik ko‘rinishi (Van Gizon usulida bo‘yalgan. OK 10 x 10 4 OB 10. 1- shilliq qavatning shish hisobiga kengayishi, 2- mushak qavatning shish hisobiga kengayishi, 3- vena qon tomirlar to‘laqlonligi).


Makroskopik nuqtai nazardan, tadqiqot guruhining 9 oylik oq zotsiz kalamushlar qizilo‘ngachida ko‘zga ko‘rinarli patologik o‘zgarishlar aniqlanmadi.

II - Tadqiqot guruhining 9 oylik kalamushlarida qizilo‘ngachning organometrik parametrlari dinamikasi quyidagilardan iborat bo‘ldi: kuzatuv davrida, qizilo‘ngachning absolyut vazni - 2,36 g dan 3,87 g gacha, o‘rtacha - $3,24 \pm 0,06$ g; qizilo‘ngachning uzunligi - 3,16 sm dan 6,02 sm gacha, o‘rtacha - $4,38 \pm 0,14$ sm; kengligi - 0,41 sm dan 0,77 sm gacha, o‘rtacha - $0,59 \pm 0,01$ sm; qalinligi - 0,13 mm dan 0,23 sm gacha, o‘rtacha - $0,18 \pm 0,01$ sm; qizilo‘ngachning hajmi - $0,14 \text{ sm}^3$ dan $0,46 \text{ sm}^3$ gacha, o‘rtacha - $0,24 \pm 0,015 \text{ sm}^3$ ga oshganligi aniqlandi (3.2.2.-rasm).

Gistologik nuqtai nazardan, 1 oy davomida 2 xil nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan oq zotsiz kalamushlarda qizilo‘ngach devorining shilliq parda qavati epiteliydan, xususiy va muskul plastinkalaridan iborat bo‘lib, epiteliy qatlamining bazal hujayralari giperplaziyasi hisobiga bazal qavatining qalinlashuvi, hujayralararo to‘qima shishi bilan birga hujayralararo bo‘shliqlikning kengayishi

aniqlandi. Epiteliy ostida joylashgan xususiy plastinka qavati esa siyrak tolali shakllanmagan biriktiruvchi to'qimadan iborat bo'lib, ushbu xususiy qavat epiteliyga botib kirishi hisobiga hosil bo'lgan ba'zi so'rg'ichlarning uzayishi aniqlandi. Biriktiruvchi to'qimada elastik va kollagen tolalar soni ko'p miqdorda bo'lib, juda ko'p diffuz ba'zan follikula hosil qilib joylashgan limfo-leykositlar infiltrasiyasi aniqlanadi. Epiteliyning xususiy plastinka qavatida arterial qon tomirlar bo'shlig'ining torayishi hamda vena tomirlar ektaziyasi aniqlandi. Qizilo'ngachning shilliq osti qavatining sezilarsiz darajadagi qalinlashuvi hamda mushak qavatining tashqi - aylana, ichki - bo'ylama mushaklarda gipertrofiya alomatlarini ko'rish mumkin. Qizilo'ngachning adventitsial parda qavati siyrak tolali shakllanmagan biriktiruvchi to'qimadan iborat bo'lib, ularda o'zgarish kuzatilmadi (3.2.3.-rasm).

Gistologik tekshiruv shuni ko'rsatdiki, II - tadqiqot guruhdagi 9 oylik oq kalamushlar qizilo'ngachining shilliq qavatining shishi, shilliq osti qavati hujayralarning giperplaziyasi, arterial qon tomirlar bo'shlig'ining torayishi, vena tomirlar ektaziyasi, limfo-leykositlar infil'trasiyasi, sezilarsiz darajadagi tashqi - aylana, ichkin - bo'ylama muskul qavati tolalarining gipertrofiyasi aniqlandi.



3.2.3.-rasm. Tadqiqot guruhinig 1 oy davomida 2 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo'ngachining gistologik ko'rinishi (Gematoksilin-eozinda bo'yalgan. OK

10 x 10 4 OB 10. 1- shilliq qavat shishi, 2- shilliq osti qavati hujayra giperplaziyasi, 3- mushak qavatining gipertrofiyasi).

3.2-jadval

Tadqiqot guruhi 1 oy davomida 2 xil nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo‘ngach devorining nazorat guruhi morfometrik ko‘rsatkichlarining qiyosiy tavsifi (M±m).

Qavatlari	O‘lchamlari					
	Nazorat guruhi			Tadqiqot guruhi		
	Min	Max	O‘rtacha	Min	Max	O‘rtacha
Shilliq qavatining qalinligi (mkm)						
Epiteliy plastinka qalinligi (EP) (mkm)	35,06	50,76	44,2±0,57	35,06	56,23	45,4±0,76
Xususiy plastinka qalinligi (XP) (mkm)	8,42	13,11	11,4±0,12	10,55	13,11	11,7±0,11
Mushak plastinka (MP) (mkm)	15,77	23,55	17,82±0,19	13,09	22,82	18,3±0,29
Shilliq osti qavatining qalinligi (mkm)	54,4	66,43	59,08±0,44	56,38	66,43	60,78±0,25**
Muskul qavatining qalinligi (mkm)						
Sirkulyar qavat (SQ) (mkm)	198,55	207,32	202,76±0,36	200,23	216,66	207,56±0,52*
Bo‘ylama muskul qavat (BQ)	133,35	156,4	152,92±0,45	144,4	175,32	157,33±1,19**
Adventisiya qavatining qalinligi (mkm)	3,22	4,18	3,52±0,03	3,14	4,22	3,54±0,04

*Izoh: * - bilan 1-nazorat guruhiga nisbatan o‘rtacha arifmetik qiymatlar orasidagi ishonchli farqi belgilangan (** - $P < 0,01$; * - $P < 0,001$).*

O‘tkazilgan tadqiqotlarning gistomorfometrik ma‘lumotlari shuni ko‘rsatadiki, kuzatuv davridagi II-tadqiqot guruhining 9 oylik kalamushlarida qizilo‘ngachining shilliq qavatining epiteliy plastinkasi diametri – 35,06 mkm dan 56,23 mkm gacha, o‘rtacha - 45,4±0,87 mkm ga, xususiy plastinka diametri – 10,55 mkm dan 13,11 mkm gacha, o‘rtacha - 11,7±0,15 mkm ga, mushak plastinka diametri – 13,09 mkm dan 22,82 mkm gacha, o‘rtacha - 18,3±0,47 mkm ga, umumiy shilliq qavatining diametri esa 61,18 mkm dan 83,69 mkm gacha, o‘rtacha - 75,4±0,98 mkm; shilliq osti qavatining diametri - 56,38 mkm dan 66,43 mkm gacha,

oʻrtacha - $60,78 \pm 0,45$ mkm; muskul qavatining tashqi – aylana muskullarning diametri - 200,23 mkm dan 216,66 mkm gacha, oʻrtacha - $207,56 \pm 0,82$ mkm ga, ichki - boʻylama muskullarning diametri - 144,4 mkm dan 175,32 mkm gacha, oʻrtacha - $157,33 \pm 1,27$ mkm ga, umumiy muskul qavatining diametri - 344,63 mkm dan 378,54 mkm gacha, oʻrtacha - $370,3 \pm 1,35$ mkm; tashqi adventisiya qavatining diametri - 3,14 mkm dan 4,22 mkm gacha, oʻrtacha - $3,54 \pm 0,06$ mkm ga tengligi 2-jadvalda qayd etildi.

II-tadqiqot guruhining 1 oy davomida 2 xil nosteroid yalligʻlanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamushlar qiziloʻngachida makroskopik jihatdan koʻzga koʻrinarli yaqqol oʻzgarishlar kuzatilmasada, ammo gistologik, gistomorfometrik tadqiqot natijalariga koʻra yaqqol namoyon boʻluvchi patologik oʻzgarishlar aniqlandi.

Shunday qilib, gistologik jihatdan II-tadqiqot guruhining 1 oy davomida 2 xil nosteroid yalligʻlanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq kalamushlar qiziloʻngachi devori shilliq va shilliq osti qavati hujayralarining giperplaziyasi, hujayralararo tʻqima shishi bilan birga hujayralararo boʻshliqlikning kengayishi, vena tomirlar toʻlaqlonligi, muskul qavati tolalarining gipertrofiyasi kabi yaqqol yuzaga kelgan patologik oʻzgarishlar gistomorfometrik koʻrsatkichlar bilan tasdiqlandi.


3.3. Uchinchi guruh 1 oy davomida 3 xil nosteroid yalligʻlanishga qarshi dori qabul qilgan oq zotsiz kalamushlarda qiziloʻngach toʻqimasining morfologiyasi va morfometrik xususiyatlari.

Bizning maʼlumotlarga koʻra, 9 oylik oq zotsiz kalamushlar qiziloʻngach mushagi devorining 1 oy davomida 3 xildagi nosteroid yalligʻlanishga qarshi vositalar taʼsiri ostidagi oʻzgarishlarini oʻrganish maqsadida, jami 50 ta qiziloʻngach organi makroskopik va mikroskopik tekshirildi. III – guruxni – 1 oy davomida 3 xil nosteroid yalligʻlanishga qarshi dori (paratsetamol 15 mg/kg, aspirin 5 mg/kg, ibuprofen 6 mg/kg) qabul qilgan oq zotsiz kalamushlar tashkil etdi (n=50);

Makroskopik jihatdan, tadqiqot guruhi oq zotsiz kalamushlarining vazni 200

g dan 224 g gacha, o'rtacha $-214,21 \pm 1,5$ g gacha, qizilo'ngach massasi 3 g dan 3,67 g gacha, o'rtacha $- 3,25 \pm 0,025$ g ga teng. II- tadqiqot guruhi oq zotsiz kalamushlar qizilo'ngach organi tashqi tomondan biriktiruvchi to'qima bilan qoplangan bo'lib, VI bo'yin umurtqasi sohasidan boshlanadi va uning pastki qismi qorin bo'shlig'ida joylashganligi aniqlandi. Qizilo'ngachning yuqorigi kirish qismida yuqorigi torayma, aorta ravog'i va chap bosh bronx sohasida o'rta torayma va pastkisi diafragma bilan kesishgan joyida uchta torayma va anatomik jihatdan uchta bo'yin qismi, ko'krak qismi va qorin qismi qismini ko'rish mumkin. Uning devori shilliq, shilliq osti va muskul qavatlardan iboratligi aniqlandi.


Makroskopik nuqtai nazardan, tadqiqot guruhining 9 oylik oq zotsiz kalamushlar qizilo'ngachida ko'zga ko'rinarli patologik o'zgarishlar sezilmadi (3.3.1.-rasm).



3.3.1-rasm. Tadqiqot guruhinig 1 oy davomida 2 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo'ngachining gistologik ko'rinishi (Van Gizon usulida bo'yalgan. OK 10 x 10 4 OB 10 . 1- shilliq qavatning shish hisobiga kengayishi, 2- shilliq qavatning shish hisobiga kengayishi, 3- vena qon tomirlar to'laonligi).

II-Tadqiqot guruhining 1 oy davomida 3 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik kalamushlarida qizilo'ngachning organometrik parametrlari dinamikasi quyidagilardan iborat bo'ldi: kuzatuv davrida, qizilo'ngachning absolyut vazni - 3 g dan 3,67 g gacha, o'rtacha $- 3,25 \pm 0,025$ g;


qizilo'ngachning uzunligi - 3,35 sm dan 6,06 sm gacha, o'rtacha - $4,39 \pm 0,13$ sm; kengligi - 0,35 sm dan 0,88 sm gacha, o'rtacha - $0,61 \pm 0,024$ sm; qalinligi - 0,126 mm dan 0,33 sm gacha, o'rtacha - $0,18 \pm 0,009$ sm; qizilo'ngachning hajmi - $0,094 \text{ sm}^3$ dan $0,59 \text{ sm}^3$ gacha, o'rtacha - $0,27 \pm 0,02 \text{ sm}^3$ ga oshganligi aniqlandi (3.3.2.-rasm).




3.3.2-rasm Tadqiqot guruhinig 1 oy davomida 2 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo'ngachining gistologik ko'rinishi (Van Gizon usulida bo'yalgan. OK 10 x OB 10. 1- shilliq qavatning shish hisobiga kengayishi, 2- vena qon tomirlar to'laqlonligi).

Gistologik nuqtai nazardan, 1 oy davomida 3 xil turdagi nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan oq zotsiz kalamushlarda qizilo'ngach devorining shilliq parda qavati epiteliydan, xususiy va muskul plastinkalaridan iborat bo'lib, epiteliy qatlamining bazal hujayralari giperplaziyasi hisobiga bazal qavatining qalinlashuvi, hujayralararo to'qima shishi bilan birga hujayralararo bo'shliqlikning kengayishi aniqlandi. Epiteliy ostida joylashgan xususiy plastinka qavati esa siyrak tolali shakllanmagan biriktiruvchi to'qimadan iborat bo'lib, ushbu xususiy qavat epiteliyga botib kirishi hisobiga hosil bo'lgan ba'zi so'rg'ichlarning uzayganligini ko'rish mumkin. Biriktiruvchi to'qimada elastik va kollagen tolalar soni ko'p miqdorda bo'lib, juda ko'p diffuz ba'zan follikula hosil qilib joylashgan limfo-leykositlar infiltratsiyasi aniqlanadi. Epiteliyning xususiy plastinka qavatida


arterial qon tomirlar bo'shlig'ining torayishi hamda vena tomirlar ektaziyasi aniqlandi. Bundan tashqari, shilliq pardaning xususiy plastinkasida qizilo'ngachning kardial bezlari hiqildoqning uzuksimon tog'ayi sohasida, qizilo'ngachning me'daga o'tish qismida joylashgan bo'lib, bezlarning oxirgi bo'lirlari shilliq ishlab chiqaruvchi silindrsimon yoki kubsimon hujayralardan tashkil topganligi aniqlandi. Qizilo'ngachning shilliq osti qavatining sezilarli darajadagi qalinlashuvi hamda mushak qavatining tashqi - aylana, ichki - bo'ylama mushaklarda gipertrofiya alomatlarini ko'rish mumkin. Qizilo'ngachning adventitsiya qavatida bo'ylama yo'nalgan qon tomirlar va nerv tolalarining ko'plab joylashganligi, qizilo'ngachning pastki qorin qismida adventitsiya o'rnida seroz parda bolib, uning mezoteliy bilan o'ralgan biriktiruvchi to'qimadan tashkil topganligi va ularda o'zgarish kuzatilmadi (3.3.3, 3.3.4.-rasmlar).



3.3.3.-rasm. Tadqiqot guruhinig 1 oy davomida 3 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo'ngachining gistologik ko'rinishi (Gematoksilin-eozinda bo'yalgan. OK 10 x 10 4 OB. 1- shilliq qavat shishi, 2- shilliq osti qavati hujayra giperplaziyasi, 3- mushak qavatining gipertrofiyasi,



3.3.4.-rasm. Tadqiqot guruhinig 1 oy davomida 3 xil nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo‘ngachining gistologik ko‘rinishi (Gematoksilin-eozinda bo‘yalgan. OK 10 x 10 4 OB. 1- shilliq qavat giperplaziyasi hisobiga shish, 2- shilliq osti qavati hujayra giperplaziyasi, 3- muskul qavati tolalarining gipertrofiyasi,



3.3.5.-rasm. Tadqiqot guruhinig 1 oy davomida 3 xil nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo‘ngachining gistologik ko‘rinishi (Gematoksilin-eozinda bo‘yalgan. OK 10 x 10 4 OB. morfometrik ko‘rsatkichlari)

O‘tkazilgan tadqiqotlarning gistomorfometrik ma‘lumotlari shuni ko‘rsatadiki, kuzatuv davridagi II-tadqiqot guruhining 1 oy davomida 3 xil turdagi

nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik kalamushlarida qizilo‘ngachining shilliq qavatining epiteliy plastinkasi diametri – 33,08 mkm dan 60,76 mkm gacha, o‘rtacha - $45,98 \pm 1,15$ mkm ga, xususiy plastinka diametri – 10,76 mkm dan 13,2 mkm gacha, o‘rtacha - $12,03 \pm 0,1$ mkm ga, mushak plastinka diametri – 10,09 mkm dan 21,45 mkm gacha, o‘rtacha - $18,42 \pm 0,52$ mkm ga, umumiy shilliq qavatining diametri esa 60,2 mkm dan 92,28 mkm gacha, o‘rtacha - $76,44 \pm 1,35$ mkm; shilliq osti qavatining diametri - 58,42 mkm dan 65,32 mkm gacha, o‘rtacha - $61,32 \pm 0,27$ mkm; muskul qavatining tashqi – aylana muskullarning diametri - 198,66 mkm dan 214,33 mkm gacha, o‘rtacha - $209,68 \pm 0,8$ mkm ga, ichki - bo‘ylama muskullarning diametri - 145,11 mkm dan 177,38 mkm gacha, o‘rtacha - $158,63 \pm 1,33$ mkm ga, umumiy muskul qavatining diametri - 342,66 mkm dan 387,74 mkm gacha, o‘rtacha - $371,11 \pm 1,33$ mkm; tashqi adventisiya qavatining diametri - 3,22 mkm dan 4,43 mkm gacha, o‘rtacha - $3,55 \pm 0,05$ mkm ga tengligi qayd etildi (3.3-jadval).

3.3-jadval


Tadqiqot guruhi 1 oy davomida 3 xil nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo‘ngach devorining nazorat guruhi morfometrik ko‘rsatkichlarining qiyosiy tavsifi ($M \pm m$)

Qavatlari	O‘lchamlari					
	Nazorat guruhi, n = 59			Tadqiqot guruhi, n=50		
	Min	Max	O‘rtacha	Min	Max	O‘rtacha
Shilliq qavatining qalinligi (mkm)						
Epiteliy plastinka qalinligi (EP) (mkm)	35,06	50,76	$44,2 \pm 0,57$	33,08	60,76	$45,98 \pm 0,89$
Xususiy plastinka qalinligi (XP) (mkm)	8,42	13,11	$11,4 \pm 0,12$	10,76	13,2	$12,03 \pm 0,08^*$
Mushak plastinka (MP) (mkm)	15,77	23,55	$17,82 \pm 0,19$	10,09	21,45	$18,45 \pm 0,32^{***}$
Shilliq osti qavatining qalinligi (mkm)	54,4	66,43	$59,08 \pm 0,44$	58,42	65,32	$61,32 \pm 0,13^*$
Muskul qavatining qalinligi (mkm)						
Sirkulyar qavat (SQ) (mkm)	198,55	207,32	$202,76 \pm 0,36$	198,66	214,33	$209,68 \pm 0,48^*$
Bo‘ylama muskul qavat (BQ)	133,35	156,4	$152,92 \pm 0,45$	145,11	177,38	$158,63 \pm 1,18^*$
Adventisiya qavatining qalinligi (mkm)	3,22	4,18	$3,52 \pm 0,03$	3,22	4,43	$3,55 \pm 0,04$

Izoh: * - bilan 1-nazorat guruhiga nisbatan o‘rtachaarifmetik qiymatlar orasidagi ishonchli

farqi belgilangan (*** - $P < 0,05$; ** - $P < 0,01$; * - $P < 0,001$).

II-tadqiqot guruhining 3 xil turdagi nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamushlar qizilo‘ngachida makroskopik jihatdan ko‘zga ko‘rinarli yaqqol o‘zgarishlar kuzatilmasada, ammo gistologik, gistomorfometrik tadqiqot natijalariga ko‘ra yaqqol namoyon bo‘luvchi patologik o‘zgarishlar aniqlandi.



3.3.6.-rasm. Tadqiqot guruhinig 1 oy davomida 3 xil nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo‘ngachining gistologik ko‘rinishi (Gematoksilin-eozinda bo‘yalgan. OK 10 x 10 4 OB. morfometrik ko‘rsatkichlari).

Shunday qilib, gistologik jihatdan II-tadqiqot guruhining 1 oy davomida 3 xil turdagi nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq kalamushlar qizilo‘ngachi devori shilliq qavatining giperemiyasi va shilliq osti qavati hujayralarining giperplaziyasi hisobiga shish, hujayralararo to‘qima shishi bilan birga hujayralararo bo‘shliqlikning kengayishi, shilliq osti qavat hujayralari limfotsitar infiltratsiyasi, vena tomirlar to‘laqlonligi, muskul qavati tolalarining gipertrofiyasi kabi yaqqol yuzaga kelgan patologik o‘zgarishlar gistomorfometrik ko‘rsatkichlar bilan tasdiqlandi.

IV BOB. ASOSIY KO'RSAKICHLAR

4.1. To'rtinchi guruh 10 kun davomida 4 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan oq zotsiz kalamushlarda qizilo'ngach to'qimasining morfologiyasi va morfometrik xususiyatlari.

Bizning ma'lumotlarga ko'ra, 9 oylik oq zotsiz kalamushlar qizilo'ngach mushagi devorining 10 kun davomida 4 xildagi nosteroid yallig'lanishga qarshi vositalar ta'siri ostidagi o'zgarishlarini o'rganish maqsadida, jami 50 ta qizilo'ngach organi makroskopik va mikroskopik tekshirildi. III – guruxni – 10 kun davomida 3 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori (paratsetamol 15 mg/kg, aspirin 5 mg/kg, ibuprofen 6 mg/kg, deksametazon 0,1 mg/kg) qabul qilgan oq zotsiz kalamushlar tashkil etdi (n=50);


Makroskopik jihatdan, tadqiqot guruhi oq zotsiz kalamushlarining vazni 188 g dan 223,8 g gacha, o'rtacha $-212,53 \pm 1,7$ g gacha, qizilo'ngach massasi 2,86 g dan 3,58 g gacha, o'rtacha $- 3,25 \pm 0,026$ g ga teng. II- tadqiqot guruhi oq zotsiz kalamushlar qizilo'ngach organi tashqi tomondan biriktiruvchi to'qima bilan qoplangan bo'lib, VI bo'yin umurtqasi sohasidan boshlanadi va uning pastki qismi qorin bo'shlig'ida joylashganligi aniqlandi. Qizilo'ngachning yuqorigi kirish qismida yuqorigi torayma, aorta ravog'i va chap bosh bronx sohasida o'rta torayma va pastkisi diafragma bilan kesishgan joyida uchta torayma va anatomik jihatdan uchta bo'yin qismi, ko'krak qismi va qorin qismi qismini ko'rish mumkin. Uning devori shilliq, shilliq osti va muskul qavatlaridan iboratligi aniqlandi.

Makroskopik nuqtai nazardan, tadqiqot guruhining 9 oylik oq zotsiz kalamushlar qizilo'ngachida ko'zga ko'rinarli patologik o'zgarishlar sezilmadi.

II-Tadqiqot guruhining 1 oy davomida 3 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik kalamushlarida qizilo'ngachning organometrik parametrlari dinamikasi quyidagilardan iborat bo'ldi: kuzatuv davrida, qizilo'ngachning absolyut vazni - 2,86 g dan 3,58 g gacha, o'rtacha $- 4,38 \pm 0,12$ g; qizilo'ngachning uzunligi - 3,35 sm dan 5,85 sm gacha, o'rtacha $- 4,39 \pm 0,13$ sm; kengligi - 0,37 sm dan 0,76 sm gacha, o'rtacha $- 0,59 \pm 0,017$ sm; qalinligi - 0,13 mm

dan 0,56 sm gacha, oʻrtacha - $0,21 \pm 0,02$ sm; qiziloʻngachning hajmi - $0,14 \text{ sm}^3$ dan $0,68 \text{ sm}^3$ gacha, oʻrtacha - $0,26 \pm 0,02 \text{ sm}^3$ ga oshganligi aniqlandi.

Gistologik nuqtai nazardan, 1 oy davomida 4 xil turdagi nosteroid yalligʻlanishga qarshi dori qabul qilgan oq zotsiz kalamushlarda qiziloʻngach devorining shilliq parda qavati epiteliydan, xususiy va muskul plastinkalaridan iborat boʻlib, epiteliy qatlamining bazal hujayralari giperplaziyasi hisobiga bazal qavatining qalinlashuvi, hujayralararo toʻqima shishi bilan birga hujayralararo boʻshliqlikning kengayishi aniqlandi. Epiteliy ostida joylashgan xususiy plastinka qavati esa siyrak tolali shakllanmagan biriktiruvchi toʻqimadan iborat boʻlib, ushbu xususiy qavat epiteliyga botib kirishi hisobiga hosil boʻlgan baʼzi soʻrgʻichlarning uzayganligini koʻrish mumkin. Biriktiruvchi toʻqimada elastik va kollagen tolalar soni koʻp miqdorda boʻlib, juda koʻp diffuz baʼzan follikula hosil qilib joylashgan limfo-leykositlar infiltrasiyasi aniqlanadi.




4.1.1-rasm. Tadqiqot guruhinig 10 kun davomida 4 xil nosteroid yalligʻlanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamush qiziloʻngachining gistologik koʻrinishi (Gematoksilin-eozin usulida boʻyalgan. OK 10 x 10 4 OB. 1- shilliq qavat shishi, 2- shilliq osti qavati hujayra giperplaziyasi, 3- vena qon tomirlar toʻlaqonligi, 4-mushak qavatining gipertrofiyasi).


Epiteliyning xususiy plastinka qavatida arterial qon tomirlar boʻshligʻining torayishi hamda vena tomirlar ektaziyasi aniqlandi. Bundan tashqari, shilliq pardaning xususiy plastinkasida qiziloʻngachning kardial bezlari hiqildoqning

uzuksimon tog‘ayi sohasida, qizilo‘ngachning me‘daga o‘tish qismida joylashgan bo‘lib, bezlarning oxirgi bo‘limlari shilliq ishlab chiqaruvchi silindrsimon yoki kubsimon hujayralardan tashkil topganligi aniqlandi. Qizilo‘ngachning shilliq osti qavatining sezilarli darajadagi qalinlashuvi hamda mushak qavatining tashqi - aylana, ichki - bo‘ylama mushaklarda gipertrofiya alomatlarini ko‘rish mumkin (4.1.1-rasm).

Qizilo‘ngachning adventitsiya qavatida bo‘ylama yo‘nalgan qon tomirlar va nerv tolalarining ko‘plab joylashganligi, qizilo‘ngachning pastki qorin qismida adventitsiya o‘rnida seroz parda bolib, uning mezoteliy bilan o‘ralgan biriktiruvchi to‘qimadan tashkil topganligi va ularda o‘zgarish kuzatilmadi (4.1.2, 4.1.3-rasmlar).



4.1.2-rasm. Tadqiqot guruhinig 10 kun davomida 3 xil nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo‘ngachining gistologik ko‘rinishi (Gematoksilin-eozin usulida bo‘yalgan. OK 10 x 10 4 OB. 1- shilliq qavat giperplaziyasi hisobiga shish, 2 – vena qon tomirlar to‘laqlonligi, shilliq osti qavati hujayra giperplaziyasi, 3- muskul qavati tolalarining gipertrofiyasi,



4.1.3-rasm. Tadqiqot guruhinig 10 kun davomida 3 xil nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo‘ngachining gistologik ko‘rinishi (Van Gizon usulida bo‘yalgan. OK 10 x 10 4 OB. muskul qavati tolalarining gipertrofiyasi.

O‘tkazilgan tadqiqotlarning gistomorfometrik ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, kuzatuv davridagi II-tadqiqot guruhining 10 kun davomida 4 xil turdagi nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik kalamushlarida qizilo‘ngachining shilliq qavatining epiteliy plastinkasi diametri – 34,6 mkm dan 56,23 mkm gacha, o‘rtacha - $45,53 \pm 1,03$ mkm ga, xususiy plastinka diametri – 11,55 mkm dan 13,63 mkm gacha, o‘rtacha - $11,78 \pm 0,093$ mkm ga, mushak plastinka diametri – 9,55 mkm dan 20,11 mkm gacha, o‘rtacha - $19,27 \pm 0,63$ mkm ga, umumiy shilliq qavatining diametri esa 65,18 mkm dan 88,69 mkm gacha, o‘rtacha - $74,87 \pm 1,09$ mkm; shilliq osti qavatining diametri - 56,35 mkm dan 63,44 mkm gacha, o‘rtacha - $60,7 \pm 0,32$ mkm; muskul qavatining tashqi – aylana muskullarning diametri - 190,16 mkm dan 210,55 mkm gacha, o‘rtacha - $208,55 \pm 1,05$ mkm ga, ichki - bo‘ylama muskullarning diametri - 146,35 mkm dan 168,23 mkm gacha, o‘rtacha - $157,13 \pm 1,06$ mkm ga, umumiy muskul qavatining 336,794 mkm dan 378,59 mkm gacha, o‘rtacha - $365,88 \pm 1,62$ mkm; tashqi adventisiya qavatining diametri - 3,54 mkm dan 3,87 mkm gacha, o‘rtacha - $3,66 \pm 0,02$ mkm ga tengligi qayd etildi (4.1-jadval).


4.1-jadval

Tadqiqot guruhi 1 oy davomida 3 xil nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo‘ngach devorining nazorat guruhi morfometrik ko‘rsatkichlarining qiyosiy tavsifi (M±m)

Qavatlar	O‘lchamlari					
	Nazorat guruhi, n = 59			Tadqiqot guruhi, n=50		
	Min	Max	O‘rtacha	Min	Max	O‘rtacha
Shilliq qavatining qalinligi (mkm)						
Epiteliy plastinka qalinligi (EP) (mkm)	35,06	50,76	44,2±0,57	34,6	56,23	45,5±0,8
Xususiy plastinka qalinligi (XP) (mkm)	8,42	13,11	11,4±0,12	11,5	13,63	12±0,06**
Mushak plastinka (MP) (mkm)	15,77	23,55	17,8±0,19	9,55	20,11	19,3±0,22*
Shilliq osti qavatining qalinligi (mkm)	54,4	66,43	59,1±0,44	56,35	63,44	60,7±0,2**
Muskul qavatining qalinligi (mkm)						
Sirkulyar qavat (SQ) (mkm)	198,5	207,32	202,8±0,4	190,2	210,5	208,5±0,4*
Bo‘ylama muskul qavat (BQ)	133,4	156,4	152,92±0,5	146,4	168,2	157,1±1,02**
Adventisiya qavatining qalinligi (mkm)	3,22	4,18	3,52±0,03	3,54	3,87	3,66±0,02*

*Izoh: * - bilan 1-nazorat guruhiga nisbatan o‘rtachaarifmetik qiymatlar orasidagi ishonchli farqi belgilangan (** - P<0,05; ** - P<0,01; * - P<0,001).*

II-tadqiqot guruhining 4 xil turdagi nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamushlar qizilo'ngachida makroskopik jihatdan ko'zga ko'rinarli yaqqol o'zgarishlar kuzatilmasada, ammo gistologik, gistomorfometrik tadqiqot natijalariga ko'ra yaqqol namoyon bo'luvchi patologik o'zgarishlar aniqlandi.



4.1.4-rasm. Tadqiqot guruhining 10 kun davomida 4 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo'ngachining gistologik ko'rinishi (Gematoksilin-eozin usulida bo'yalgan. OK 10 x 10 4 OB. 1- shilliq qavat shishi, 2- shilliq osti qavati hujayra giperplaziyasi, 3- vena qon tomirlar to'laqonligi, 4- mushak qavati tolalarning gipertrofiyasi hisobiga kengayishi).

Shunday qilib, gistologik jihatdan II-tadqiqot guruhining 1 oy davomida 3 xil turdagi nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq kalamushlar qizilo'ngachi devori shilliq qavatining giperemiyasi va shilliq osti qavati hujayralarining giperplaziyasi hisobiga shish, hujayralararo to'qima shishi bilan birga hujayralararo bo'shliqlikning kengayishi, shilliq osti qavat hujayralari limfokotsitar infiltratsiyasi, vena tomirlar to'laqonligi, muskul qavati tolalarining gipertrofiyasi kabi yaqqol yuzaga kelgan patologik o'zgarishlar gistomorfometrik ko'rsatkichlar bilan tasdiqlandi.

4.2. To'rtinchi guruh 1 oy davomida 4 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan oq zotsiz kalamushlarda qizilo'ngach to'qimasining morfologiyasi va morfometrik xususiyatlari.


Tadqiqot davomida olingan natijalarga ko'ra, 1 oy davomida 4 turdagi nosteroid yallig'lanishga qarshi dorilar ta'sirida 9 oylik oq zotsiz kalamushlar qizilo'ngachining mushak devoridagi o'zgarishlarni o'rganish uchun 50 ta oq zotsiz kalamushlarning qizilo'ngach organi makroskopik va mikroskopik tekshirildi. IV-guruxni – 4 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori (paratsetamol 15 mg/kg, aspirin 5 mg/kg, ibuprofen 6 mg/kg, deksametazon 0,1 mg/kg) qabul qilgan oq zotsiz kalamushlar (n=50) tashkil etdi;

Makroskopik jihatdan, tadqiqot guruhi 1 oy davomida 4 turdagi nosteroid yallig'lanishga qarshi dorilar ta'sirida 9 oylik oq zotsiz kalamushlarining vazni 201,6 g dan 222 g gacha, o'rtacha - $213,64 \pm 1,43$ g gacha, qizilo'ngach massasi 2,98 g dan 3,82 g gacha, o'rtacha - $3,27 \pm 0,032$ g ga teng. II- tadqiqot guruhi oq zotsiz kalamushlar qizilo'ngach organi tashqi tomondan biriktiruvchi to'qima bilan qoplangan bo'lib, VI bo'yin umurtqasi sohasidan boshlanadi va uning pastki qismi qorin bo'shlig'ida joylashganligi aniqlandi. Qizilo'ngachning yuqorigi kirish qismida yuqorigi torayma, aorta ravog'i va chap bosh bronx sohasida o'rta torayma va pastkisi diafragma bilan kesishgan joyida uchta torayma va anatomik jihatdan uchta bo'yin qismi, ko'krak qismi va qorin qismi qismini ko'rish mumkin. Uning devori shilliq, shilliq osti va muskul qavatlaridan iboratligi aniqlandi.

Makroskopik nuqtai nazardan, tadqiqot guruhining 9 oylik oq zotsiz kalamushlar qizilo'ngachida ko'zga ko'rinarli patologik o'zgarishlar sezilmadi (4.2.1-rasm).

II-Tadqiqot guruhining 1 oy davomida 4 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik kalamushlarida qizilo'ngachning organometrik parametrlari dinamikasi quyidagilardan iborat bo'ldi: kuzatuv davrida, qizilo'ngachning absolyut vazni – 2,98 g dan 3,82 g gacha, o'rtacha - $3,27 \pm 0,032$ g; qizilo'ngachning uzunligi - 3,41 sm dan 5,27 sm gacha, o'rtacha - $4,43 \pm 0,09$ sm;


kengligi - 0,42 sm dan 0,76 sm gacha, o'rtacha - $0,59 \pm 0,02$ sm; qalinligi - 0,4 mm dan 0,35 sm gacha, o'rtacha - $0,2 \pm 0,011$ sm; qizilo'ngachning hajmi - $0,012 \text{ sm}^3$ dan $0,36 \text{ sm}^3$ gacha, o'rtacha - $0,24 \pm 0,01 \text{ sm}^3$ ga oshganligi aniqlandi.



4.2.1-rasm Tadqiqot guruhinig 10 kun davomida 4 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo'ngachining gistologik ko'rinishi (Gematoksilin-eozinda bo'yalgan. OK 10 x 10 4 OB 4. 1- shilliqlik qavat shishi, 2- shilliqlik osti qavati hujayra giperplaziyasi, 3- vena qon tomirlar to'laqonligi, 4- mushak qavati tolalarning gipertrofiyasi hisobiga kengayishi).


Gistologik nuqtai nazardan, tadqiqot guruhining 1 oy davomida 4 xil turdagi nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamushlarda qizilo'ngach devorining shilliqlik parda qavati epiteliydan, xususiy va muskul plastinkalaridan iborat bo'lib, epiteliy qatlaminig bazal hujayralari giperplaziyasi hisobiga bazal qavatining qalinlashuvi, hujayralararo to'qima shishi bilan birga hujayralararo bo'shliqlikning kengayishi aniqlandi. Epiteliy ostida joylashgan xususiy plastinka qavati esa siyrak tolali shakllanmagan biriktiruvchi to'qimadan iborat bo'lib, ushbu xususiy qavat epiteliyga botib kirishi hisobiga hosil bo'lgan ba'zi so'rg'ichlarning uzayganligini ko'rish mumkin. Biriktiruvchi to'qimada elastik va kollagen tolalar soni ko'p miqdorda bo'lib, juda ko'p diffuz ba'zan follikula hosil qilib joylashgan limfo-leykositlar infiltratsiyasi aniqlanadi. Epiteliyning xususiy

plastinka qavatida arterial qon tomirlar bo'shlig'ining torayishi hamda vena tomirlar ektaziyasi aniqlandi. Bundan tashqari, shilliq pardaning xususiy plastinkasida qizilo'ngachning kardial bezlari hiqildoqning uzuksimon tog'ayi sohasida, qizilo'ngachning me'daga o'tish qismida joylashgan bo'lib, bezlarning oxirgi bo'limlari shilliq ishlab chiqaruvchi silindrsimon yoki kubsimon hujayralardan tashkil topganligi aniqlandi. Qizilo'ngachning shilliq osti qavatining sezilarli darajadagi qalinlashuvi hamda mushak qavatining tashqi - aylana, ichki - bo'ylama mushaklarda gipertrofiya alomatlarini ko'rish mumkin (4.2.2-rasm).



4.2.2.-rasm. Tadqiqot guruhinig 1 oy davomida 4 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo'ngachining gistologik ko'rinishi (Gematoksilin-eozinda bo'yalgan. OK 10x10 4 OB. gistomorfometrik ma'lumotlar.)

Qizilo'ngachning adventitsiya qavatida bo'ylama yo'nalgan qon tomirlar va nerv tolalarining ko'plab joylashganligi, qizilo'ngachning pastki qorin qismida adventitsiya o'rnida seroz parda bolib, uning mezoteliy bilan o'ralgan biriktiruvchi to'qimadan tashkil topganligi va ularda o'zgarish kuzatilmadi.



4.2.3-rasm. Tadqiqot guruhinig 1 oy davomida 4 xil nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo‘ngachining gistologik ko‘rinishi (Van Gizon usulida bo‘yalgan. OK 10x10 4 OB. mushak qavati tolalarining gipertrofiyasi hisobiga kengayishi.)

O‘tkazilgan tadqiqotlarning gistomorfometrik ma‘lumotlari shuni ko‘rsatadiki, kuzatuv davridagi II-tadqiqot guruhining 1 oy davomida 4 xil turdagi nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik kalamushlarida qizilo‘ngachining shilliq qavatining epiteliy plastinkasi diametri – 40,55 mkm dan 59,86 mkm gacha, o‘rtacha - $49,6 \pm 0,95$ mkm ga, xususiy plastinka diametri – 9,89 mkm dan 13,63 mkm gacha, o‘rtacha - $12,16 \pm 0,15$ mkm ga, mushak plastinka diametri – 12,12 mkm dan 22,01 mkm gacha, o‘rtacha - $18,66 \pm 0,46$ mkm ga, umumiy shilliq qavatining diametri esa 68,54 mkm dan 90,41 mkm gacha, o‘rtacha - $77,73 \pm 1,05$ mkm; shilliq osti qavatining diametri - 60,12 mkm dan 66,02 mkm gacha, o‘rtacha - $62,02 \pm 0,31$ mkm; muskul qavatining tashqi – aylana muskullarning diametri - 195,23 mkm dan 220,35 mkm gacha, o‘rtacha - $210,54 \pm 0,97$ mkm ga, ichki - bo‘ylama muskullarning diametri - 148,54 mkm dan 166,32 mkm gacha, o‘rtacha - $157,93 \pm 0,82$ mkm ga, umumiy muskul qavatining diametri - 166,32 351,66 mkm dan 378,67 mkm gacha, o‘rtacha - $368,45 \pm 1,23$ mkm; tashqi adventisiya qavatining diametri - 3,23 mkm dan 4,56 mkm gacha, o‘rtacha -

3,57±0,07 mkm ga tengligi qayd etildi (4.2-jadval).

4.2-jadval

Tadqiqot guruhi 1 oy davomida 4 xil nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo‘ngach devorining nazorat guruhi morfometrik ko‘rsatkichlarining qiyosiy tavsifi (M±m)

Qavatlari	O‘lchamlari					
	Nazorat guruhi			Tadqiqot guruhi		
	Min	Max	O‘rtacha	Min	Max	O‘rtacha
Shilliq qavatining qalinligi (mkm)						
Epiteliy plastinka qalinligi (EP) (mkm)	35,06	50,76	44,2±0,57	40,55	59,86	49,6±0,48*
Xususiy plastinka qalinligi (XP) (mkm)	8,42	13,11	11,4±0,12	9,89	13,63	12,16±0,07*
Mushak plastinka (MP) (mkm)	15,8	23,55	17,9±0,19	12,12	22,01	18,7±0,25**
Shilliq osti qavatining qalinligi (mkm)	54,4	66,43	59,1±0,44	60,12	66,02	62,02±0,12*
Muskul qavatining qalinligi (mkm)						
Sirkulyar qavat (SQ) (mkm)	198,4	207,32	202,76±0,4	195,23	220,35	210,5±0,79*
Bo‘ylama muskul qavat (BQ)	133,4	156,4	152,92±0,5	148,54	166,32	158,2±0,46*
Adventisiya qavatining qalinligi (mkm)	3,22	4,18	3,52±0,03	3,23	4,56	3,57±0,04

*Izoh: * - bilan 1-nazorat guruhiga nisbatan o‘rtachaarifmetik qiymatlar orasidagi ishonchli farqi belgilangan (***) - P<0,05; ** - P<0,01; * - P<0,001).*

II-tadqiqot guruhining 1 oy davomida 4 xil turdagi nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan 6 oylik oq zotsiz kalamushlar qizilo‘ngachida makroskopik jihatdan ko‘zga ko‘rinarli yaqqol o‘zgarishlar kuzatilmasada, ammo gistologik, gistomorfometrik tadqiqot natijalariga ko‘ra yaqqol namoyon bo‘luvchi patologik o‘zgarishlar aniqlandi.

Shunday qilib, gistologik jihatdan II-tadqiqot guruhining 1 oy davomida 4 xil turdagi nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq kalamushlar qizilo‘ngachi devori shilliq qavatining giperemiyasi va shilliq osti qavati hujayralarining giperplaziyasi hisobiga shish miqdorining oshishi, hujayralararo to‘qima shishi bilan birga hujayralararo bo‘shliqlikning kengayishi, shilliq osti qavat hujayralari limfo-leykotsitar infiltratsiyasi, vena tomirlar to‘laqonligi, muskul qavati tolalarining gipertrofiyasi kabi yaqqol yuzaga kelgan patologik o‘zgarishlar gistomorfometrik ko‘rsatkichlar bilan tasdiqlandi.

Shunday qilib, gistologik jihatdan II-tadqiqot guruhining 1 oy davomida 4 xil nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq kalamushlar qizilo‘ngachi devorining giperemiyasi, shilliq qavatining shishi, epiteliy hujayra yadrolarining kattalashgani, shilliq osti qavati hujayralarining giperplaziyasi, vena qon tomirlarning to‘laqonligi, mushak qavati tolalarining gipertrofiyasi va shishi kabi yaqqol yuzaga kelgan patologik o‘zgarishlar miqdori gistomorfometrik ko‘rsatkichlar bilan tasdiqlandi.


4.3. Oltinchi guruh 10 kun davomida 5 xil nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan oq zotsiz kalamushlarda qizilo‘ngach to‘qimasining morfologiyasi va morfometrik xususiyatlari.

Tadqiqot davomida olingan natijalarga ko‘ra, 10 kun davomida 5 turdagi nosteroid yallig‘lanishga qarshi dorilar ta’sirida 9 oylik oq zotsiz kalamushlar qizilo‘ngachining mushak devoridagi o‘zgarishlarni o‘rganish uchun 50 ta oq zotsiz kalamushlarning qizilo‘ngach organi makroskopik va mikroskopik tekshirildi. IV–guruxni – 5 xil nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori (paratsetamol 15 mg/kg, aspirin 5 mg/kg, ibuprofen 6 mg/kg, deksametazon 0,1 mg/kg, gidroksixlorixinin sulfat 6,5

mg/kg) qabul qilgan oq zotsiz kalamushlar (n=50) tashkil etdi;

Makroskopik jihatdan, tadqiqot guruhi 10 kun davomida 5 turdagi nosteroid yallig'lanishga qarshi dorilar ta'sirida 9 oylik oq zotsiz kalamushlarining vazni 180,87 g dan 220,7 g gacha, o'rtacha - $214,87 \pm 1,96$ g gacha, qizilo'ngach massasi 3,11 g dan 3,66 g gacha, o'rtacha - $3,31 \pm 0,022$ g ga teng. II- tadqiqot guruhi oq zotsiz kalamushlar qizilo'ngach organi tashqi tomondan biriktiruvchi to'qima bilan qoplangan bo'lib, VI bo'yin umurtqasi sohasidan boshlanadi va uning pastki qismi qorin bo'shlig'ida joylashganligi aniqlandi. Qizilo'ngachning yuqorigi kirish qismida yuqorigi torayma, aorta ravog'i va chap bosh bronx sohasida o'rta torayma va pastkisi diafragma bilan kesishgan joyida uchta torayma va anatomik jihatdan uchta bo'yin qismi, ko'krak qismi va qorin qismi qismini ko'rish mumkin. Gistologik jihatdan uning devori shilliq, shilliq osti va muskul qavatlardan iboratligi aniqlandi.

Makroskopik nuqtai nazardan, tadqiqot guruhining 9 oylik oq zotsiz kalamushlar qizilo'ngachida ko'zga ko'rinarli patologik o'zgarishlar sezilmadi.




4.3.1-rasm. Tadqiqot guruhinig 1 oy davomida 4 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo'ngachining gistologik ko'rinishi (Van Gizon usulida bo'yalgan. OK 10 x 10 4 OB. mushak qavati tolalarining gipertrofiyasi hisobiga kengayishi.)

II-Tadqiqot guruhining 10 kun davomida 5 xil nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik kalamushlarida qizilo‘ngachning organometrik parametrlari dinamikasi quyidagilardan iborat bo‘ldi: kuzatuv davrida, qizilo‘ngachning absolyut vazni – 3,11 g dan 3,66 g gacha, o‘rtacha - $3,31 \pm 0,02$ g; qizilo‘ngachning uzunligi - 3,07 sm dan 5,31 sm gacha, o‘rtacha - $4,4 \pm 0,1$ sm; kengligi - 0,39 sm dan 0,78 sm gacha, o‘rtacha - $0,61 \pm 0,02$ sm; qalinligi - 0,11 mm dan 0,35 sm gacha, o‘rtacha - $0,18 \pm 0,011$ sm; qizilo‘ngachning hajmi - $0,1 \text{ sm}^3$ dan $0,6 \text{ sm}^3$ gacha, o‘rtacha - $0,25 \pm 0,02 \text{ sm}^3$ ga oshganligi aniqlandi (4.3.1- rasm).

Gistologik nuqtai nazardan, tadqiqot guruhining 10 kun davomida 5 xil turdagi nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamushlarda qizilo‘ngach devorining shilliq parda qavati epiteliydan, xususiy va muskul plastinkalaridan iborat bo‘lib, epiteliy qatlaminig bazal hujayralari giperplaziyasi hisobiga bazal qavatining qalinlashuvi, hujayralararo to‘qima shishi bilan birga hujayralararo bo‘shliqlikning kengayishi aniqlandi. Epiteliy ostida joylashgan xususiy plastinka qavati esa siyrak tolali shakllanmagan biriktiruvchi to‘qimadan iborat bo‘lib, ushbu xususiy qavat epiteliyga botib kirishi hisobiga hosil bo‘lgan ba‘zi so‘rg‘ichlarning uzayganligini ko‘rish mumkin. Biriktiruvchi to‘qimada elastik va kollagen tolalar soni ko‘p miqdorda bo‘lib, juda ko‘p diffuz ba‘zan follikula hosil qilib joylashgan limfo-leykositlar infiltrasiyasi aniqlanadi. Epiteliyning xususiy plastinka qavatida arterial qon tomirlar bo‘shlig‘ining torayishi hamda vena tomirlar ektaziyasi aniqlandi. Bundan tashqari, shilliq pardaning xususiy plastinkasida qizilo‘ngachning kardial bezlari hiqildoqning uzuksimon tog‘ayi sohasida, qizilo‘ngachning me‘daga o‘tish qismida joylashgan bo‘lib, bezlarning oxirgi bo‘limlari shilliq ishlab chiqaruvchi silindrsimon yoki kubsimon hujayralardan tashkil topganligi aniqlandi. Qizilo‘ngachning shilliq osti qavatining sezilarli darajadagi qalinlashuvi hamda mushak qavatining tashqi - aylana, ichki - bo‘ylama mushaklarda gipertrofiya alomatlarini ko‘rish mumkin (4.3.2-rasm). Qizilo‘ngachning adventitsiya qavatida bo‘ylama yo‘nalgan qon tomirlar va nerv tolalarining ko‘plab joylashganligi, qizilo‘ngachning pastki qorin qismida adventitsiya o‘rnida seroz parda bolib, uning mezoteliy bilan o‘ralgan biriktiruvchi

to'qimadan tashkil topganligi va ularda o'zgarish kuzatilmadi.



4.3.2-rasm. Tadqiqot guruhinig 10 kun davomida 5 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo'ngachining gistologik ko'rinishi (Gematoksilin-eozin usulida bo'yalgan. OK 10 x 10 4 OB. 1- shilliq qavat giperemiyasi va giperplaziyasi hisobiga shish, 2- shilliq osti qavati hujayra giperplaziyasi). 3- mushak qavati tolalarning gipertrofiyasi hisobiga kengayishi).

O'tkazilgan tadqiqotlarning gistomorfometrik ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, kuzatuv davridagi II-tadqiqot guruhining 10 kun davomida 5 xil turdagi nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik kalamushlarida qizilo'ngachining shilliq qavatining epiteliy plastinkasi diametri – 30,14 mkm dan 61,67 mkm gacha, o'rtacha - $45,54 \pm 0,89$ mkm ga, xususiy plastinka diametri – 8,11 mkm dan 13,87 mkm gacha, o'rtacha - $12,01 \pm 0,12$ mkm ga, mushak plastinka diametri – 12,23 mkm dan 25,22 mkm gacha, o'rtacha - $18,48 \pm 0,36$ mkm ga, umumiy shilliq qavatining diametri esa 57,63 mkm dan 91,36 mkm gacha, o'rtacha - $79,37 \pm 0,91$ mkm; shilliq osti qavatining diametri - 40,36 mkm dan 79,36 mkm gacha, o'rtacha - $61,42 \pm 0,74$ mkm; muskul qavatining tashqi – aylana muskullarning diametri - 192,96 mkm dan 230,31 mkm gacha, o'rtacha - $209,93 \pm 0,98$ mkm ga, ichki - bo'ylama muskullarning diametri - 120,38 mkm dan 189,37 mkm gacha, o'rtacha - $161,73 \pm 2,3$ mkm ga, umumiy muskul qavatining diametri – 340,6 mkm

dan 404,7 mkm gacha, o'rtacha - 366,67±1,9 mkm; tashqi adventisiya qavatining diametri - 2,36 mkm dan 3,98 mkm gacha, o'rtacha - 3,48±0,02 mkm ga tengligi qayd etildi (4.3-jadval).

4.3-jadval

Tadqiqot guruhi 1 oy davomida 5 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo'ngach devorining nazorat guruhi morfometrik ko'rsatkichlarining qiyosiy tavsifi (M±m)

Qavatlari	O'lchamlari					
	Nazorat guruhi			Tadqiqot guruhi		
	Min	Max	O'rtacha	Min	Max	O'rtacha
Shilliq qavatining qalinligi (mkm)						
Epiteliy plastinka qalinligi (EP) (mkm)	35,06	50,76	44,2±0,57	30,14	61,7	45,5±0,89
Xususiy plastinka qalinligi (XP) (mkm)	8,42	13,11	11,4±0,12	8,11	13,9	12,01±0,13*
Mushak plastinka (MP) (mkm)	15,77	23,55	17,82±0,19	12,23	25,22	18,48±0,42
Shilliq osti qavatining qalinligi (mkm)	54,4	66,43	59,08±0,44	40,36	79,36	61,42±1,03
Muskul qavatining qalinligi (mkm)						
Sirkulyar qavat (SQ) (mkm)	198,55	207,32	202,76±0,36	192,96	230,3	209,93±1,1*
Bo'ylama muskul qavat (BQ)	133,35	156,4	152,92±0,45	120,4	189,4	161,73±2,4**
Adventisiya qavatining qalinligi (mkm)	3,22	4,18	3,52±0,03	2,4	3,98	3,48±0,06

*Izoh: * - bilan I-nazorat guruhiga nisbatan o'rtachaarifmetik qiymatlar orasidagi ishonchli farqi belgilangan (** - P<0,01; * - P<0,001).*

II-tadqiqot guruhining 10 kun davomida 5 xil turdagi nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamushlar

qizilo'ngachida makroskopik jihatdan ko'zga ko'rinarli yaqqol o'zgarishlar kuzatilmada, ammo gistologik, gistomorfometrik tadqiqot natijalariga ko'ra yaqqol namoyon bo'luvchi patologik o'zgarishlar aniqlandi.

Shunday qilib, gistologik jihatdan II-tadqiqot guruhining 10 kun davomida 5 xil turdagi nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq kalamushlar qizilo'ngachi devori shilliq qavatining giperemiyasi va shilliq osti qavati hujayralarining giperplaziyasi hisobiga shish miqdorining oshishi, hujayralararo to'qima shishi bilan birga hujayralararo bo'shliqlikning kengayishi, shilliq osti qavat hujayralari limfo-leykotsitar infiltratsiyasi, vena qon tomirlar to'laqlonligi, muskul qavati tolalarining gipertrofiyasi kabi yaqqol yuzaga kelgan patologik o'zgarishlar gistomorfometrik ko'rsatkichlar bilan tasdiqlandi.


Shunday qilib, gistologik jihatdan II-tadqiqot guruhining 10 kun davomida 5 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq kalamushlar qizilo'ngachi devorining giperemiyasi, shilliq qavatining shishi, epiteliy hujayra yadrolarining kattalashgani, shilliq osti qavati hujayralarining giperplaziyasi, vena qon tomirlarning to'laqlonligi, mushak qavati tolalarining gipertrofiyasi va shishi kabi yaqqol yuzaga kelgan patologik o'zgarishlar miqdori gistomorfometrik ko'rsatkichlar bilan tasdiqlandi.

4.4. Yettinchi guruh 1 oy davomida 5 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan oq zotsiz kalamushlarda qizilo'ngach to'qimasining morfologiyasi va morfometrik xususiyatlari.

Tadqiqot davomida 9 oylik oq zotsiz kalamushlar qizilo'ngach mushagi devorining 1 oy davomida 5 xildagi nosteroid yallig'lanishga qarshi vositalar ta'siri ostidagi o'zgarishlarini o'rganish maqsadida, jami 50 ta qizilo'ngach organi makroskopik va mikroskopik tekshirildi. VI – guruxni – 1 oy davomida 5 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori (paratsetamol 15 mg/kg, aspirin 5 mg/kg, ibuprofen 6 mg/kg, deksametazon 0,1 mg/kg, gidroksixlorixinin sulfat 6,5 mg/kg) qabul qilgan oq zotsiz kalamushlar tashkil etdi (n=50);

Makroskopik jihatdan, tadqiqot guruhi oq zotsiz kalamushlarining vazni 196

g dan 221,9 g gacha, o'rtacha $-213,1 \pm 1,5$ g gacha, qizilo'ngach massasi 2,82 g dan 3,77 g gacha, o'rtacha $- 3,28 \pm 0,035$ g ga teng. II- tadqiqot guruhi oq zotsiz kalamushlar qizilo'ngach organi tashqi tomondan biriktiruvchi to'qima bilan qoplangan bo'lib, VI bo'yin umurtqasi sohasidan boshlanadi va uning pastki qismi qorin bo'shlig'ida joylashganligi aniqlandi. Qizilo'ngachning anatomik jihatdan uchta bo'yin qismi, ko'krak qismi va qorin qismi va devorining shilliq, shilliq osti va muskul, seroz qavatlardan iboratligi aniqlandi.




4.4.1-rasm. Tadqiqot guruhining 9 oylik oq zotsiz kalamushlarda 1 oy davomida 5 xil turdagi yallig'lanishga qarshi preparatlar polipragmaziyasida qizilo'ngachining gistologik ko'rinishi (Gematoksilin-eozin usulida bo'yalgan. OK 10 x 10 4 OB. 1- shilliq qavat shishi va shilliq osti qavati hujayra giperplaziyasi, 2- yassi epiteliyning deskvamasiyasi).

Makroskopik nuqtai nazardan, tadqiqot guruhining 9 oylik oq zotsiz kalamushlar qizilo'ngachida tashqi tomonidan va ichki tomonidan devorida ko'zga ko'rinarli patologik ko'zga ko'rinarli o'zgarishlar aniqlanmadi (4.4.1-rasm).

II-Tadqiqot guruhining 1 oy davomida 5 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik kalamushlarida qizilo'ngachning organometrik parametrlari dinamikasi quyidagilardan iborat bo'ldi: kuzatuv davrida, qizilo'ngachning absolyut vazni - 2,82 g dan 3,77 g gacha, o'rtacha $- 3,28 \pm 0,035$ g; qizilo'ngachning uzunligi - 3,32 sm dan 5,07 sm gacha, o'rtacha $- 4,44 \pm 0,08$ sm;

kengligi - 0,43 sm dan 0,79 sm gacha, o'rtacha - $0,65 \pm 0,02$ sm; qalinligi - 0,11 mm dan 0,2 sm gacha, o'rtacha - $0,2 \pm 0,004$ sm; qizilo'ngachning hajmi - $0,14 \text{ sm}^3$ dan $0,33 \text{ sm}^3$ gacha, o'rtacha - $0,26 \pm 0,01 \text{ sm}^3$ ga oshganligi aniqlandi (4.4.2-rasm).




4.4.2-rasm. Tadqiqot guruhinig 9 oylik oq zotsiz kalamushlarda 1 oy davomida 5 xil turdagi yallig'lanishga qarshi preparatlar polipragmaziyasida qizilo'ngachining gistologik ko'rinishi (Gematoksilin-eozin usulida bo'yalgan. OK 10 x 10 4 OB. 1- shilliq va shilliq osti qavati shishi hisobiga qizilo'ngach devorining qalinlashuvi, 2- qon tomirlar eritrositar massa hisobiga to'laqlonligi).

Gistologik nuqtai nazardan, 1 oy davomida 5 xil turdagi nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan oq zotsiz kalamushlarda qizilo'ngach devorining shilliq parda qavati epiteliydan, xususiy va muskul plastinkalaridan iborat bo'lib, epiteliy qatlamining bazal hujayralari giperplaziyasi hisobiga bazal qavatining qalinlashuvi va giperemiyasi, hujayralararo to'qima shishi bilan birga hujayralararo bo'shliqlikning kengayishi, yassi epiteliyning deskvamasiyasi aniqlandi. Epiteliy ostida joylashgan xususiy plastinka qavati esa siyrak tolali shakllanmagan biriktiruvchi to'qimadan iborat bo'lib, ushbu xususiy qavat epiteliyga botib kirishi hisobiga hosil bo'lgan ba'zi so'rg'ichlarning uzayganligini ko'rish mumkin. Biriktiruvchi to'qimada elastik va kollagen tolalar soni ko'p miqdorda bo'lib, juda ko'p diffuz ba'zan follikula hosil qilib joylashgan limfo-

leykositlar infiltrasiyasi aniqlanadi. Epiteliyning xususiy plastinka qavatida arterial qon tomirlar bo'shlig'ining torayishi hamda vena tomirlar ektaziyasi aniqlandi. Bundan tashqari, shilliq pardaning xususiy plastinkasida qizilo'ngachning kardial bezlari hiqildoqning uzuksimon tog'ayi sohasida, qizilo'ngachning me'daga o'tish qismida joylashgan bo'lib, bezlarning oxirgi bo'limlari shilliq ishlab chiqaruvchi silindrsimon yoki kubsimon hujayralardan tashkil topganligi aniqlandi. Qizilo'ngachning shilliq osti qavatining sezilarli darajadagi qalinlashuvi hamda mushak qavatining tashqi - aylana, ichki - bo'ylama mushaklarda gipertrofiya alomatlarining kengayganligini ko'rish mumkin (4.4.3-rasm). Qizilo'ngachning mushak parda qavati yuqori 1/3 qismida ko'ndalang targ'il, o'rta 1/3 qismida ham ko'ndalang targ'il, ham silliq mushak, quyi 1/3 qismida esa faqatgina silliq mushaklardan tuzilganligini ko'rish mumkin.

Qizilo'ngachning adventitsiya qavatida bo'ylama yo'nalgan qon tomirlar va nerv tolalarining ko'plab joylashganligi, qizilo'ngachning pastki qorin qismida adventitsiya o'rnida seroz parda bolib, uning mezoteliy bilan o'ralgan biriktiruvchi to'qimadan tashkil topganligi va ularda o'zgarish kuzatilmadi.



4.4.3-rasm. Tadqiqot guruhinig 6 oylik oq zotsiz kalamushlarda 1 oy davomida 5 xil turdagi yallig'lanishga qarshi preparatlar polipragmaziyasida qizilo'ngachining gistologik ko'rinishi (Gematoksilin-eozin usulida bo'yalgan). OK 10 x10 4 OB. gistomorfometrik ma'lumotlar).

ko'rsatadiki, kuzatuv davridagi II-tadqiqot guruhining 1 oy davomida 5 xil turdagi nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik kalamushlarida qizilo'ngachining shilliq qavatining epiteliy plastinkasi diametri – 30,14 mkm dan 63,87 mkm gacha, o'rtacha - $47,15 \pm 0,96$ mkm ga, xususiy plastinka diametri – 7,62 mkm dan 14,88 mkm gacha, o'rtacha - $12,28 \pm 0,15$ mkm ga, mushak plastinka diametri – 13,21 mkm dan 24,78 mkm gacha, o'rtacha - $18,76 \pm 0,4$ mkm ga, umumiy shilliq qavatining diametri esa 68,41 mkm dan 95,41 mkm gacha, o'rtacha - $78,18 \pm 1,15$ mkm; shilliq osti qavatining diametri - 48,78 mkm dan 79,37 mkm gacha, o'rtacha - $62,24 \pm 0,45$ mkm; muskul qavatining tashqi – aylana muskullarning diametri - 192,77 mkm dan 232,36 mkm gacha, o'rtacha - $211,5 \pm 1,02$ mkm ga, ichki - bo'ylama muskullarning diametri - 120,38 mkm dan 189,37 mkm gacha, o'rtacha - $160,53 \pm 1,05$ mkm ga, umumiy muskul qavatining diametri - 340,6 mkm dan 404,7 mkm gacha, o'rtacha - $372,01 \pm 1,68$ mkm; tashqi adventisiya qavatining diametri - 2,22 mkm dan 4,98 mkm gacha, o'rtacha - $3,6 \pm 0,07$ mkm ga tengligi qayd etildi (4.4-jadval).

II-tadqiqot guruhining 1 oy davomida 5 xil turdagi nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamushlar qizilo'ngachida makroskopik jihatdan ushbu organning bir oz shishi hamda gistologik, gistomorfometrik tadqiqot natijalariga ko'ra yaqqol namoyon bo'luvchi patologik o'zgarishlar aniqlandi.

Shunday qilib, gistologik jihatdan II-tadqiqot guruhining 1 oy davomida 5 xil turdagi nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq kalamushlar qizilo'ngachi devori shilliq qavatining giperemiyasi va shilliq osti qavati hujayralarining giperplaziyasi hisobiga shish, hujayralararo to'qima shishi bilan birga hujayralararo bo'shliqlikning kengayishi, shilliq osti qavat hujayralari limfaleykotsitlar infiltratsiyasi, yassi epiteliyning deskvamatsiyasi, vena tomirlarning eritrositar massa hisobiga to'laqonligi, muskul qavati tolalarining gipertrofiyasi kabi yaqqol yuzaga kelgan patologik o'zgarishlar gistomorfometrik ko'rsatkichlar bilan tasdiqlandi.

4.4-jadval

Tadqiqot guruhi 1 oy davomida 5 xil nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori qabul qilgan 9 oylik oq zotsiz kalamush qizilo‘ngach devorining nazorat guruhi morfometrik ko‘rsatkichlarining qiyosiy tavsifi (M±m)

Qavatlari	O‘lchamlari					
	Nazorat guruhi			Tadqiqot guruhi		
	Min	Max	O‘rtacha	Min	Max	O‘rtacha
Shilliq qavatining qalinligi (mkm)						
Epiteliy plastinka qalinligi (EP) (mkm)	35,06	50,8	44,2±0,57	30,14	63,9	47,15±0,84**
Xususiy plastinka qalinligi (XP) (mkm)	8,42	13,1	11,4±0,12	7,62	14,9	12,28±0,13*
Mushak plastinka (MP) (mkm)	15,8	23,6	17,82±0,19	13,21	24,8	18,76±0,26**
Shilliq osti qavatining qalinligi (mkm)	54,4	66,4	59,08±0,44	68,41	95,41	78,18±1,05*
Muskul qavatining qalinligi (mkm)						
Sirkulyar qavat (SQ) (mkm)	198,6	207,3	202,76±0,4	192,8	232,4	211,5±1,2*
Bo‘ylama muskul qavat (BQ)	133,4	156,4	152,92±0,4	120,4	189,4	160,53±2,12**
Adventisiya qavatining qalinligi (mkm)	3,22	4,18	3,52±0,03	2,22	4,98	3,6±0,09

*Izoh: * - bilan 1-nazorat guruhiga nisbatan o‘rtachaarifmetik qiymatlar orasidagi ishonchli farqi belgilangan (*** - $P < 0,05$; ** - $P < 0,01$; * - $P < 0,001$).*

XOTIMA

So‘nggi yillarda olib borilgan izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, butun dunyo bo‘yicha 300 millionga yaqin insonlar nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori vositalaridan tartibsiz foydalanadilar [Savallini M.E. at all, 2016 yil].

Yallig‘lanishga qarshi nosteroid dorilar qabul qilish fonida yuzaga keladigan oshqozon-ichak trakti shilliq qavatining yallig‘lanishi va destruktiv zararlanishi, shifokor amaliyotida etakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Bu kasalliklarni davolash muammosi asosan komorbid sharoitlarni boshqarishning murakkabligiga yaqqol misol bo‘ladi. Agar xar qanday klinik sinovlarning natijalariga murojaat qilsak, komorbidlikning mavjudligi ko‘pincha istisno mezonini bo‘ladi. [Sofronov V.G. 2021 yil, SHekunova E.V., Kovaleva M.A. va b. 2020 yil].

Ushbu dorilar guruhlarining nojo‘ya ta‘siri tibbiy tabiiy ravishda, birinchi navbatda, me‘da-ichak trakti shilliq qavati va siydik ayiruv tizimining shikastlanishi bilan bog‘liq [Aminova G.G., Grigorenko D.E.2012 yil, Belyaeva E.V., Guo‘in YA.A. 2020]. Shunday qilib, yallig‘lanishga qarshi nosteroid dori vositalarini uzoq muddat qabul qilish natijasida yuzaga keladigan qizilo‘ngach devori qavatlarining shikastlanishi xayot uchun xafvli vaziyatlarining rivojlanishiga va adaptiv reaksiyasining pasayishiga olib keladigan holatlar ham uchrab turadi [Tarasova L.V., Truxan D.I. 2013 yil].

Adabiyotlar taxlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda yallig‘lanishga qarshi dori vositalari bilan polipragmaziya qarshi kurashish har qanday yoshdagi bemorlarga tibbiy yordam ko‘rsatishning muhim vazifalaridan biridir. Bu tibbiy yordam sifatini yaxshilaydigan va istalmagan dori reaksiyalarini kamaytirishga qaratilgan strategiyani ishlab chiqish zarurligini ta‘kidlaydi [SHekunova E.V.,Kovaleva M.A va b. 2020 yil Annuar Fazalda, Adam Quraisiah. Mohd Fahami Nur Azlina. 2018, Arthur J. Kast L, Natalie A. Terry, Gaary D. Albenberg. 2019].

Bundan tashqari, ko‘plab tadqiqotlarda farmakoterapiya sxemalarini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazishda, hazm nayi limfoid tizimiga yallig‘lanishga qarshi dori moddalar ta‘sirining xususiyatlarini hisobga olinmagan [Efimov A.L. va b. 2017 yil].

Eksperimental jihatdan qizilo'ngach to'qimasining makro - va mikromorfologiyasini o'rganish normal vivariy sharoitida bo'lgan 350 ta 6 oylik oq zotsiz kalamushlarda amalga oshirildi. Tajribaning boshida barcha yetilgan kalamushlar bir hafta davomida karantin sharoitida saqlandi, somatik yoki yuqumli kasalliklar inkor etilgandan so'ng ular kuniga 3 marta ovqatlanish bilan odatdagi vivariy rejimiga o'tkazildi.

Tajriba guruhidagi oq zotsiz kalamushlarning eksperimental guruhlarida polipragmaziyaning ta'sirini o'rganish uchun quyidagi yallig'lanishga qarshi vositalar ishlatilgan: Aspirin (NYAQD-salitsil kislotasining hosilalari), paratsetamol (NYAQD-anilidlarning hosilalari), ibuprofen (NYAQD-propion kislotasining hosilalari), deksametazon (sintetik glyukokortikosteroid), Plaquenil (yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega bo'lgan gidroksiklorokin sulfat antimalarial moddasi).

Tajriba uchun olingan oq zotsiz kalamushlar 7 guruhga ajratildi (n=350): I-guruh – (intakt) kontrol (n=50); II-guruh – 1 oy davomida 2 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan oq zotsiz kalamushlar, paratsetamol 15 mg/kg, aspirin 5 mg/kg (n=50); III – guruh – 1 oy davomida 3 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan oq zotsiz kalamushlar, paratsetamol 15 mg/kg, aspirin 5 mg/kg, ibuprofen 6 mg/kg (n=50); IV-guruh – 10 kun davomida 4 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan oq zotsiz kalamushlar, paratsetamol 15 mg/kg, aspirin 5 mg/kg, ibuprofen 6 mg/kg, deksametazon 0,1 mg/kg. (n=50); V- 1 oy davomida 4 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan oq zotsiz kalamushlar, paratsetamol 15 mg/kg, aspirin 5 mg/kg, ibuprofen 6 mg/kg, deksametazon 0,1 mg/kg. (n=50); VI - guruh –10 kun davomida 5 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan oq zotsiz kalamushlar, paratsetamol 15 mg/kg, aspirin 5 mg/kg, ibuprofen 6 mg/kg, deksametazon 0,1 mg/kg, gidroksiklorixinin sulfat 6,5 mg/kg (n=50); VII- guruh –1 oy davomida 5 xil nosteroid yallig'lanishga qarshi dori qabul qilgan oq zotsiz kalamushlar, paratsetamol 15 mg/kg, aspirin 5 mg/kg, ibuprofen 6 mg/kg, deksametazon 0,1 mg/kg, gidroksiklorixinin sulfat 6,5 mg/kg (n=50). Ushbu dori dozalari empirik tarzda hisoblab chiqilgan va har kun oshqozon ichiga 10 kun va 1 oy davomida

eritma shaklida qo'llanilgan. Nazorat guruhidagi kalamushlariga esa 10 kun va 1 oy mobaynida metall zond orqali oshqozon ichiga 0.5 ml distillangan suv yuborib turildi. Tajribalarda jami 350 kalamush ishlatilgan, ulardan faqat 3 tasi tajribalar davomida vafot etgan. Hayvonlarni so'yish ertalab tegishli vaqtda, och qoringa efir anesteziyasi ostida, dekapitatsiya yo'li bilan amalga oshirildi va qizilo'ngach organi ajratib olindi. Oq zotsiz kalamushlarda qizilo'ngach to'qimasini o'rganish uchun organometrik, gistologik, gistomorfometrik va mikroskopik usullardan foydalanildi. Tadqiqot natijalarini qayta ishlash uchun statistik ma'lumotlardan foydalanildi.

Tadqiqot davomida olingan morfologik ma'lumotlarni matematik qayta ishlash to'g'ridan – to'g'ri Microsoft Office ma'lumotlar paketining umumiy matritsasi "Excel 7.0" Pentium-IV shaxsiy kompyuterida "STTGRAF 5.1" dasturining imkoniyatlaridan foydalanib, standart og'ish va vakillik xatolari aniqlandi.

Variatsion parametrik statistika usullari o'rganilayotgan ko'rsatkichning o'rta arifmetigi (M), o'rtacha kvadratik chetlanish (m), o'rtacha standart xatolik (n), nisbiy qiymatlar (chastota,%) ni hisoblash bilan qo'llanildi.

O'lchamlarni taqqoslashda olingan o'lchashlarning statistik ahamiyati Styudentning mezoni (t) taqsimotning normalligini (kurtosis mezoni bo'yicha) va umumiy variatsiyalar tengligini tekshirishda xatolik ehtimoli (P) ni hisoblash bilan aniqlandi (f – Fisher mezoni). Hisoblangan mezonlarning statistik ahamiyatini baholash uchun maqbul muhimlik darajalari (P) uchun ko'rsatkichlar va tanqidiy qiymatlar jadvallaridan foydalanildi.

Muhimlikning to'rtta asosiy darajasi statistik jihatdan ahamiyatli o'zgarishlar sifatida qabul qilindi: yuqori - $P < 0.001$, o'rta $P < 0.010$, past (marginal) – $P < 0.050$, ahamiyatsiz (ishonchsiz) - $P > 0.050$.

Tajriba guruhidagi oq zotsiz kalamushlarning eksperimental guruhlarida polipragmaziyaning ta'sirini o'rganish maqsadida ishlatilgan 2 xil, 3 xil, 4 xil, 5 xil tipdagi yallig'lanishga qarshi vositalarning qizilo'ngach organiga makroskopik ko'rsatkichlariga yaqqol jiddiy o'zgarishlar keltirib chiqarmasada, uning ichki tuzilishida morfometrik o'zgarishlar aniqlandi. Tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki,

tajriba hayvonlarida 2 xil, 3 xil, 4 xil, 5 xil tipdagi yallig'lanishga qarshi vositalarning qizilo'ngach organiganiga morfometrik ko'rsatkichlarining nazorat guruhi hayvonlari ko'rsatkichlariga yaqinlashishi, ishlatilgan yallig'lanishga qarshi vositalarning miqdori va davomiyligiga bog'liq.

Tajriba guruhidagi oq zotsiz kalamushlarning eksperimental guruhlarida polipragmaziyaning ta'sirini o'rganish uchun ishlatilgan 5 xil tipdagi yallig'lanishga qarshi dori vositalar qizilo'ngach absalyut massasing to'qimalararo shish hisobiga kattalashishi tajriba hayvonlarining tana massasining pasayishi bilan birga keldi, eng aniq ma'lumot beruvchi ko'rsatkichlar esa qizilo'ngach organi devorining shilliq, shilliq osti va tashqi muskul, ichki muskul qavatlarini diametri bo'ldi. Qizilo'ngach organidagi o'zgarishlarning yaqqolliigi ishlatilgan yallig'lanishga qarshi vositalarning miqdori va davomiyligiga bog'liq bo'ldi.

